



ISBN 978-9943-00-219-7

9 789943 002197

**ORIF MUINOV**



**RANGTASVIR**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

---

ORIF MUINOV

# RANGTASVIR

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK  
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2007

O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligining oliv va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

**Taqribchilar:**

*M. Toshmurodov* — K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Rangtasvir kafedrasi dotsenti,  
*X. Aminov* — Respublika rassomlik kolleji oliv toifali rangtasvir o'qituvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.

**Orif Muinov.**

**Rangtasvir.** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. / Orif Muinov —  
T.: «SHARQ», 2007. — 72 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada boshlovchi rassomlar uchun rangtasvirning eng nozik jihatlarini o'rgatuvchi muhim yo'nalishiar berilgan. Kitob, shuningdek, tasviriy san'at hilan shug'ullanishni istovchi barcha qiziquvchilarga ham yaqindan yordam beradi.

**ISBN 978-9943-00-219-7**

© «Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2007-y.

## KIRISH

Rangtasvir badiiy o'quv dargohlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasida bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Chizmatasvir borasida yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, yosh rassom kompozitsiya<sup>1</sup>, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtida o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida mutaxassislik fanlar, jumladan o'quv rangtasviri mashg'ulotlarini o'qitishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda usullarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bu muammolar, asosan, quyidagilardan iborat:

- 1) davlat ta'lif standartlari assosida yoshlarga tasviriyo san'at mashg'uylotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi yillarga mo'ljallangan istiqbol yo'llarini ishlab chiqish;

- 2) tasviriyo san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom-pedagoglarni tayyorlovchi ta'lif muassasalari ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahiil etish;

- 3) rassom kadrlarni tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali yoshlarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, Vatanga sadoqat, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash.

Mazkur qo'llanmada rangtasvirning maqsad va vazifalari, tasvirlash usullari tarixidan lavhalar, tasviriyo san'at, xususan rangtasvirda mavjud asosiy qonun-qoidalar, o'quv rangtasviri turlari o'rinn olgan. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanmadan tasviriyo san'at sohasi bo'yicha shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar hamda rassomlar foydalanishlari mumkin.

<sup>1</sup> Kompozitsiya — kompozitsiya so'zi «kimposito» so'zidan olingen bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirishni anglatadi. Kompozitsiya tasviriyo san'at sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tanlangan obyektni, naturani, portretni va hokazolarni ma'lum o'Ichamdag'i matoga (xolst), kartonda va boshqalarga to'g'ri, «chiroyli» joylashtirishdan, ya'ni «kompanovka» qilishdan iborat.

## RANGTASVIRNING MAQSAD VA VAZIFALARINI

Rangtasvir — barcha tasviriy san'at turlarining asosiyalaridan biri hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'i nazar, chizmatasvir va rangtasvirga asoslanadi. U o'zining kuza-tishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Katta san'at kompozitsiya asarlarini yaratishda esa, bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini<sup>1</sup> yaratishni qalamda boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, chizmatasvir, rangtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Rangtasvir mashg'ulotlari buyumlarni to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

*Uyg'onish davrining buyuk rassom va olimi Leonardo da Vinci o'zining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida, jumladan, shunday degan edi: «Yoshlar, o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir».*

Rangtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Rangtasvir darslari o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga I—III kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassomlarga ularning keyingi o'qish va ijodiy faoliyatlarida muhim hisoblanadi.

Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash mashg'ulotlari benihoya katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Realistik rasm chizish san'ati tabiatdagi shakllarni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlan-tirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Rangtasvirni o'rganish yoshlarga atrofdagi jiqlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ranglar, ularning konstruktiv tuzilishi, buyumlarning

<sup>1</sup> Kartina — tasviriy san'at asari.

nisbatlari, perspektiva (qisqarish) qonunlarini nazariy jihatdan o'rgatadi hamda ularning estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi.

## TASVIRLASHNING A'SOSIY QONUN-QOIDALARI

**Perspektiva qonuni.** Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan ko'rinishidan qat'i nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan) chizuvchiga o'zgarib ko'rindi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz.

*Buyumlarni tekislikda haqqoni tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: «Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo'yusunadi».*

Perspektiva<sup>1</sup> qonunlarini mukammal o'rganib olib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyatlari shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

*O'z navbatida perspektiva qonuni haqqoni tasvirlash «alifbo»laridan bo'lgan «surat tekisligi», «buyum tekisligi», «ko'rish maydoni», «ko'rish nuqtasi», «ufq chizig'i kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.*

**Surat tekisligi** deb tasvirlanayotgan natyurmort<sup>2</sup>, manzara, portret<sup>3</sup> va hokazolar bilan rassom orasidagi fazoga aytildi.

Yorug'lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga uning shakli ko'rindi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Buyum tekisligi** deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytildi. Buyum tekisligi vazifasini stol, pol, yer o'tashi hamda chizish uchun mo'ljallangan boshqa moslama bo'lishi mumkin.

**Ko'rish maydoni** bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishidir. Rassom tasvirlanayotgan obyektdan qanchalik uzoqlashib borsa uning maydoni ham kengayib, tasvirlanayotgan obyektning hamma qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashiga imkon yaratadi. Obyektdan juda katta masofada turib undagi hamma bo'laklarni va

<sup>1</sup> Perspektiva — qisqarish demakdir, havo perspektivasi, tabiatdagи har xil perspektivalar, masalan, yo'l, temir yo'llarning olis ufdqa qisqarishi va hokazolar.

<sup>2</sup> Natyurmort — (fransuzcha — jonsiz tabiat degan ma'noni beradi) tasviriy san'at janri. Gul, meva, qushlar, ro'zg'or buyumlari, ayrim mehnat qurollari, to'kin dasturxon tasvirlanadi.

<sup>3</sup> Portret — (fransuzcha portrait, eskicha portaire — tasvirlash ma'nosini anglatadi) tasviriy san'at janrlaridan biri, bir yoki bir necha odamlar tasviri.

hajmlarni to'laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan obyektga juda yaqin masofada turib ham, ushbu obyektdagi hamma qismlarni ko'z bilan ilg'ab olish mushkul. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda yosh rassomdan chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash uchun mahorat talab etiladi. Ko'pgina usta rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligini uch hissa ko'paytirilgan masofaga teng holda turib tasvirlaydilar. Masalan, inson qomatini to'laqonli ko'rib, tasvirlash uchun rassom naturadidan taxminan 5—5,5 metrlar masofada turishi kerak.

**Ufq chizig'i** deb, ko'zimiz balandligidan o'tadigan nurga aytildi. Buni aniqlash uchun qalamni olib, uni gorizontal holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga bu uch holatda ko'rinishi mumkin:

- 1) ufq chizig'idan yuqorida;
- 2) ufq chizig'idan pastda;
- 3) ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi darajasida).

Ufq chizigi har doim ko'zimiz nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi, pastga tushsak ufq chizigi ham pastda kuzatiladi.

**Fazoviy perspektiva** deb, buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytildi. Fazo — tiniq muhitdir. Lekin, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalarini ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zonning ta'siri va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo bo'shlig'ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir etadi.

Fazo perspektivasi obyektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun), yil fasllari (bahor, yoz, kuz,) hamda atmosfera o'zgarishiga (quyosh yoki bulut) qarab ham o'zgaradi.

Fazoviy perspektivaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1) bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa umumiy ko'rinati. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak;
- 2) fazo bo'shlig'ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, xira tusda ko'rinati. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni mavhumroq, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak;
- 3) yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinati, uzoqdagilari esa xiraroq ko'rinati. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur;
- 4) chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, favorang va och tusda ko'rinati. Fazoviy perspektivani yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko'rini turgan

buyumlarni o‘zining haqiqiy rangi va tusida aniqroq chizgilar bilan, uzoqdagilarni esa ochroq qilib tasvirlash kerak;

5) oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o‘z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo‘lib ko‘rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiylar tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazoviy perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish o‘quvchi uchun muhimdir. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qoidalalar uning qanday vazifa bajarishidan qat’i nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo) kuzatilishi mumkin.

Buyumlarni tasvirlashda yorug‘ va soyalar katta ahamiyatga ega. Naturaga qo‘ylgan buyumlarga yorug‘lik qanchalik tik tushsa ularning tasviri shunchalik yaqqol ko‘rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug‘lik buyumga umumiylar tarzda tushib bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo‘lishiga olib keladi. Yorug‘lik urilib (sinib) bir buyumdan ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug‘ va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) yorug‘lik;
- b) soya;
- d) tushuvchi soya;
- e) yarim soya;
- f) aks yorug‘lik;
- g) yaltiroqlik.

**Yorug‘lik deb** — predmet yuzasiga tik tushuvchi quyosh yoki sun‘iy yoritgichlarning buyum yuzasida tashkil etgan nurga aytildi.

**Soya** — buyumlarning yoritilgan qismining orqasiga (teskarisiga) yorug‘lik nurlari tushmagan yeriga aytildi. Bunday soyalar shaxsiy soya deb ham yuritiladi. Tasvirlar bajarishda tushuvchi soyalar ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to‘sishi natijasida hosil bo‘ladi. Ushbu soyalar buyum tekisligiga (stol, pol, yer va hokazo) hamda bajarilayotgan buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumlarga qiyaroq (xiraroq) ravishda tushuvchi yorug‘lik nuri ularda yarim soyalarni tashkil etadi. Yarim soyalar asosan yorug‘lik va shaxsiy soyalar oralig‘ida joylashadi. Shuning uchun buyumlardagi har qanday soyalar ham bir xil tusda bo‘lavermaydi.

Faqatgina yorug‘, soya va yarim soyalar vositasidagina buyumlarning hajmlarini to‘g‘ri bajarish mumkin. Buyumlarga urilish natijasida tushuvchi yorug‘liklar aks yorug‘lik (refleks)<sup>1</sup>ni<sup>1</sup> hosil qiladi. Aks yorug‘liklar predmet-

<sup>1</sup> Refleks — (lotincha reflexus — orqaga qaytarilgan, aks etgan ma’nosini anglatadi). Refleks tevarak-atrofning (predmet, osmon va h. k.) ta’siri, ulardan tushayotgan yorug‘lik aksi natijasida hosil bo‘ladi, masalan: biror bir predmetga tushayotgan rang va yorug‘lik aksi refleks hisoblanadi.

larning bir-biridan qanday masofada joylashgan yeriga qarab kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi mumkin. Lekin aks yorug‘lik hech qachon buyumlarga tik tushuvchi yorug‘lik nuriga nisbatan kuchli bo‘lmaydi.

Buyumda yorug‘lik tik tushishi natijasida esa yaltiroqlik hosil bo‘ladi. Yaltiroqlik shisha, chinni, temir, sopol va boshqa yorug‘likni qaytarish xususiyati kuchli bo‘lgan buyumlarda kuzatiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, oddiy qalam bilan buyumni hajmi asosida tuslash tasvirlanayotgan buyumlarni hajmdor bajarilishining omilidir. Duchi kelgan tomonga palapartish chiziqlar tortish qo‘yilgan maqsadga erishishga to‘sinqinlik qiladi.

Buyumlarning hajmlarini bajarishda chiziqlarni tortish ketma-ketligiga royoq qilish kerak. Qalamni qog‘oz sirtida bir xil kuch bilan bosish va chiziqlar orasidagi masofaning teng bo‘lishiga e’tibor berib tasvirlash chizilayotgan buyumni to‘g‘ri bajarilishida katta ahamiyatga ega. Aylana (sferik) hajmga ega bo‘lgan buyum ta’kidlab o‘tilgan chiziq tortish ellips shaklida bajarilib, uning ekvatoriga yaqinlashganda to‘qroq tusda bo‘ladi.

**Chiziqli konstruktiv tuzilish.** Tasvirlash uchun buyum sodda yoki murakkab bo‘lishidan qat‘i nazar konstruktiv tuzilishga ega. Konstruksiya so‘zi — lotincha «tuzilish» (qurilish) ma’nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chiziqli konstruktiv asosda ekanligiga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Chiziqli konstruktiv qurish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi.

Buyumning konstruktiv tuzilishini aniqlash yordamchi chiziqlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to‘g‘ri tasvirlashda perspektiva qonun-qoidalariga to‘liq amal qilish kerak bo‘ladi. Yuqorida ko‘satilgan rasmdagi gips ko‘zaning hajmini to‘g‘ri amalga oshirish jarayonida ko‘zaning asosi, ekvatori, bo‘g‘izi va yuqori qismlari aylanalarining buyum tekisligidagi holatiga asosan perspektiv qisqarishini ko‘ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv ko‘rish buyumning chekka qirralari kontur chiziqlardan tashkil topgan murakkab tuzilishga ega (bir necha mayda bo‘laklardan iborat). Buyumlarda esa ushbu bo‘laklarning yengil birlashib yaxlit bir butunlikni tashkil etishidan iboratdir.

Buyumlar o‘z hajmiga ega bo‘lishdan tashqari nisbatlariga ham (balandligi va eniga) egadir. Bu esa **buyumlarning nisbati** deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan qo‘yilmaning o‘z nisbatlaridan tashqari o‘zaro katta-kichikligi nisbatlari ham mavjud. Haqqoniy tasvirlashda buyumlar nisbatini to‘g‘ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to‘g‘ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, gips naqsh rozetkasini olaylik. Rozetkaning balandligini

va eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qalamni qo'lni to'liq uzatgan holda rozetkaning kichik tomoni enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir va bir guruh buyumlardan tashkil topgan natyurmort yoki boshqa postanov-kalardagi buyumlarning o'zini hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

**Hajmlar.** Har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, yuzasi va boshqalar bilan belgilanadi. To'g'ri chiziqlardan iborat buyumlarning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan mashqlarni to'g'ri bajarish kontur chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur<sup>1</sup> chizig'inining buyum shaklini namoyon etishdagi ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati va nisbatlarini tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyumning konturlari to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmlarini bajarish to'g'ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Shuningdek, uning konturlari egri chiziqlardan iborat bo'lsa (shar, konus, silindr va b.), hajmlilik ellips, aylana shakllar orqali amalga oshiriladi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash uning shakliga qarab to'g'ri tuslash orqali bajariladi. Qirrali buyumlarni, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda o'quvchilar ko'pincha xatolikka yo'l qo'yadilar.

Kubning hajmini yorug<sup>2</sup> soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu esa mutlaqo noto'g'ri. Tabiatdagi qirrali buyumlar yuzalarining bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirrasi yorug<sup>2</sup> qismidagi yuzaga yaqinroq yerida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Sferik shaklli buyumlarning hajmlari ellips, yarim aylana chiziqlar orqali bajariladi. Tasvirlashda dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan kuchliroqdir. Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi sharsimon buyumlarni tasvirlashda ham uning chetlari quyuq kontur chiziq bilan amalga oshirilmaydi. Natura holatiga qarab yorug<sup>2</sup> va orqa fondagi soyalar chegarasi mavjud, xolos. Bu qonunlarga to'g'ri amal qilish rangtasvirda ishslashda katta yordam beradi.

<sup>1</sup> Kontur — tarx, tashqi ko'rinish, shakl. Narsaning qalam tasvirini ishslashda qo'llaniladigan zirh chiziq.

## RANGTASVIRDA ISHLASH USULLARI TARIXIDAN

Tasviriy san'at eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Ajodolarimiz dunyoqarashini shakllanishida tasviriy san'at muhim vazifalarni bajargan. Eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini va shuningdek, turli xatti-harakatlarini chiziqlar, oddiy formalar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar.

Ibtidoiy odamlar ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlarning oddiy primitiv tasvirlari orqali o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasviriy qoldiqlar topilgan. Ulardan biri Zarautsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Mazkur g'ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o'ziga xos faoliyatini ko'rish mumkin. Ko'hitang tog'i yuqori qismida joylashgan bu g'orni «Oltin olov qoyasi» yoki «Oltin olov darasi» ham deb atashgan. Zar — oltin, o't — olov ma'nosida ishlatilgan.

Bu tarixiy muqaddas yodgorlik hanuzgacha «Zarautsoy» nomi bilan atalib kelinmoqda. Zarautsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mehnat turlaridan bo'lgan, shuning uchun insoniyat va hayvonot o'rtasidagi kurash manzaralari ko'plab uchraydi. Obrazlar va qiyofalar qanchalik sodda ko'rinishga ega bo'lishiga qaramasdan tomoshabinda aniq tasavvurni gavdalantiradi. Ana shu rasmlardayoq jiddiy obrazlar va fikrlar, shuningdek, turli-tuman mavzular o'z ifodasini topgan.

*Qadimgi rangtasvir san'ati.* O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos bebaho namunalarga ega. Bulardan eng qadimiyлари ibtidoiy Zarautsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi (1-rasm). Rangtasvir san'atidagi keyingi yutuqlarni qadimgi kulolchilik namunalari bo'laklarida, ayniqsa, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning devorlariga ishlangan suratlarda batafsilroq ko'rish mumkin. Samarqandning qadimiy o'rni Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxoroning Varaxsha, Panjikentning devoriy rangli tasvirlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir (2-rasm).

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki, u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo'llarini kuzatib, qoya va g'orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatları rivojlanishi

natijasida har xil ov manzaralari o'ziga xos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.

Zarautsoy (Surxondaryo) g'oridan topilgan ushbu tasvirda odamlarning yovvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborish sahnasi tasvirlangan. Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik, naturaga nisbatan bo'lgan kuzatuvchanlik holatlari kishini lol qoldiradi. Ushbu tasvir qadimgi tosh asri (mezolit)ga tegishlidir.

1957-yili Xo'jakentda (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazovordir. Uning o'chami bug'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metrni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yovvoyi buqa rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet<sup>1</sup> shaklida bo'lib, toshning bo'rtmaligi (relyefi<sup>2</sup>) hisobga olinib ishlangan. Bu ikki tasvir so'nggi paleolit davriga tegishlidir.

Eramizdan avvalgi III—II asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan suratlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, yer, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlarni tushirib, ustidan o'tkir toshni yurgizib chiqqanlar, keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) xarakterga ega bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarni tabiatni bevosita kuzatish va unga taqlid qilish orqali egallaganlar. Tasvir chizishga o'rgatish paleolit davrida hali rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik — neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish rivojlana bordi.

Rasm chizishga ishtiyoq kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bezash tufayli yanayam rivojlandi. Eng avvalo, sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu tariqa tasvirlar ishlashning dastlabki usullari ham yuzaga keldi. Endi shogird hunarmand-ustozining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib undan yo'l-yo'riqlar o'rganar edi.

<sup>1</sup> Siluet — XVIII asr fransuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o'xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg'a rangdagi qog'ozni kesib, ishlab, boshqa rangdagi qog'oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimgan Xitoyda, Yaponiyada va boshqa sharq mamlakatlari, XVIII asrdan boshlab esa Yevropada rivojlangan. Keng ma'noda — narsa, bino, turli shakllarning xarakterli ko'rinishidir.

<sup>2</sup> Relyef — haykaltaroshlikka xos bo'lgan bo'rtma tasvir. Relyef 2 turga bo'linadi: bo'rtma tasvirning yuzaga nisbatan yarmidan ko'p qismi qavargan bo'lsa «gorelyef», yarmidan kam qavargani esa «Barelyef» deb yuritiladi.

Shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom etishida muhim o'rinn tutgan.

Shunday qilib, tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin, ushbu dastlabki usullar aniq ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish hamda mакtablar tashkil etish ancha keyin boshlangan.

Tasviriy san'atga o'rgatish usullari to'g'risida gap borganda dastavval qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha, qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o'rgatilgan. Maktabni tugatgan o'spirin xona ichki ko'rinishini tasvirlay olishi, katta maydon chizmasini chizib, uning o'lchamlarini qo'ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chiza bilishi shart bo'lgan. Tasviriy san'at usullarini maktablarda o'rgatilishini biz dastlab qadimgi misrliklar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Bolani tasvirlashga o'rgatishning asosiy sabablaridan biri o'qitish uslubi iyeroglifik xususiyatga ega bo'lganligidandir. Chunki u yoki bu fikrni bayon etish faqat tasvirlar orqali amalga oshirishni talab etardi.

Dastlabki tasviriy san'at maktablari qadimgi Misrda paydo bo'lgan. O'qitish rassom-pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan usul hamda qonunlar asosida olib borilardi (3-rasm).

Shuni ta'kidlash lozimki, misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O'sha davr maktablarida yoshlarga ta'lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo'limgan. Yoshlarga rasm chizishni o'rgatish naturani<sup>1</sup> kuzatish, tahlil etish tevarak-atrofdagi voqe-hodisalarini kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar asosida olib borilgan.

Misrliklardan farqli o'laroq qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san'atni o'qitish borasida ta'lim-tarbiyaga o'zgacha yondoshib, uni tubdan boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko'proq tabiatni o'rganishga va uning ajralmas bo'laklaridan biri bo'lgan inson go'zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Parassiy, Evpomp, Pamfil, Appeleks va boshqa rassomlar o'zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik hamda matematik jihatdan o'lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar (4-rasm). Jumladan, eramizdan avvalgi 432-yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo'laklarining bir-biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida «Dorifor» ma'budasini yaratgan. Keyinchalik rasm chizishni o'rganayotgan yoshlarga Poliklet yaratgan haykallardan birini o'ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta'lim tizimiga kiritilganini ko'ramiz.

<sup>1</sup> **Natura** — (lotincha natura — tabiat) rassom tasvirlaydigan borliqdagi obyekt (inson, predmetlar, manzara va hokazo).

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib qadimgi Yunonistonda Sikkion, Efese, Fivan kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga keldi. Shulardan eng ko'zga ko'ringani Sikkion maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish usullarini takomillashtirishga, balki umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi hamda yoshlarga tasviriy san'atni o'rgatish orqali go'zal tabiatni sevishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratdi.

Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o'rgandilar. Shuning uchun Sikkion maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishni fan sifatida barcha o'quv dargohlariga kiritilishini yo'lga qo'ygan. U tasviriy san'atga ilmiy nuqtayi nazardan qarashni birinchilardan bo'lib ilgari surdi. Tasviriy san'atning asosi bo'lgan chizmatasvirga yuksak baho berarkan, «*Chizmatasvir ishlashda yugori darajada aniqlik va ilmiy asos bo'lishi kerak*» deb hisoblardi.

Pamfil tasviriy san'atni, xususan, chizmatasvir bo'yicha yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy uslubini ishlab chiqdi. Uning uslubi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashni va ko'plab amaliy mashqlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to'liq o'tish davri o'n ikki yil davom etgan.

Qadimgi Yunon mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idrok qilishni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalliklaridan lazzatlanishni o'rgatar edilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinniki, yunon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo'lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda fan sifatida kiritilishi, haqqoniy tasvirlash assoslарini yoshlarga o'rgatishda ular tarbiyasiga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatdi.

Qadimgi Rim davri san'atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. O'sha davrning boy kishilari san'at asari namunalarini yig'ib, keng ommaga namoyish qilishni odat qilganlar. Ayniqsa, bu hol Sezar hukmronligi davrida ko'proq amalga oshirilgan. Lekin, yunon san'atkorlaridan farqli o'laroq, Rim rassomlari tasviriy san'atni o'qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasi rassom-o'qituvchisi badiiy ijod muammolari bilan shug'ullanmas edi. Asosan o'qitish tizimida yunon rassomlari yaratgan namunalarga rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtayi nazardan nusxa ko'chirish, yunon rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o'qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechishi oqibatida esa tasviriy san'atning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

O'rta asrlarga kelib realistik tasviriy san'at batamom inqirozga uchradi. Chunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalari va na tasvirlashda yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy prinsiplarni to'liq bilmas edi.

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslari umumta'lim fani sifatida o'qitish tizimidan olib tashlandi. Oqibatda o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'la boshladи. Keyinchalik bu murakkab va mas'uliyatli vazifalar Uyg'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan bajarildi.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning rivojlanishida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha usullarni ishlab chiqsa boshladilar.

Tasviriy san'at, xususan, chizmatasvir bajarishning yangi usullari bo'yicha Chennini, Alberti, Leonardo da Vinci, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shug'ullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi, deb qaraydilar.

Rasm chizishga 4—6 o'quvchidan iborat guruhlar tashkil qilinib, ular usta rassomlar ustaxonalarida tahsil olar edilar. Rangtasvir kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borilardi. Usta rassom qanday qilib chizmatasvir bajarish, keyin uni materialda ishlash hamda karton (xomaki rasm) tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'rgatar edi.

Chizmatasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. Shuning uchun ham Uyg'onish davri buyuk rassomlari rasm chizish uslublarining asosi sifatida chizmatasvirni yuqori o'rninga qo'yanlar.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning asoschilaridan biri bo'lgan Chennino Chennini «Живопись, трактат о живописи» nomli asarida chizmatasvir bajarish usullariga katta e'tibor berib, uning zaminida narsaning o'ziga qarab tasvirlash mashqlari yotadi, deb yozgan edi. Uning ta'kidlashicha, yuksak mahoratga ega bo'lish uchun shogird har kuni bir necha soat rasm chizishi kerak edi. Florensiyalik me'mor Leon Battisto Alberti ham chizmatasvir va uni o'qitish usullariga katta e'tibor beradi, Xususan, uning «Rangtasvir to'g'risida uch kitob» nomli mashhur asarlar to'plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni o'rganishdan avval, rassom chizmatasvirni mukammal bilish zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatlar, xulosalari, hozirgi zamon akademik rasm chizish usullariga to'la-to'kis mos keladi. Alberti tasviriy san'atga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Tasviriy san'at usullarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinci ham o'z hissasini qo'shdi. Uning «Rangtasvir haqidagi kitobi»da olamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, haykaltaroshlik chiziqli va fazo perspektivasi haqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko'rish mumkin (5-rasm).

Alberti kabi Leonardo va Vinci ham tasviriy san'atning asosi chizmatasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur qismi ekanligini ta'kidlagan edi. Shuningdek, Leonardo da Vinci inson a'zolari tuzilishini vrach-anatom sifatida yuksak darajada o'rgangan

edi. U insonning har bir muskul va to'qimalarini o'rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uyg'onish davrining usta rassomlari orasida chizmatasvir bajarish usullarini takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanganlardan yana biri nemis rassomi Albrext Dyurer va Shonlardir.

Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko'plab tajriba sinovlar o'tkazganlar. Rassom-olimlarning diqqatga sazovor ishlaridan yana biri inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish usulini ishlab chiqqanligidir.

Uyg'onish davri rassomlari jahon tasviriy san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ularning tasviriy san'at bo'yicha ishlab chiqqan perspektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli ko'rilmagan darajada yordam berdi. Agar o'rta asrlarda tasvirlash uslubiyati buyumlar shaklu shamoyilining o'xshashligini e'tiborga olgan holda bajarilgan bo'lsa, endi bu davr tasviriy san'ati ilmiy asoslangan, anatomiya qonunlarini chuqur o'rganish, perspektiva qoidalariiga to'la-to'kis hisobga olib aks ettirgan holda tasvirlash usullari rivojlangan davr bo'ldi. Yuqorida ta'kidlanganidek Uyg'onish davri rassomlari tasviriy san'at uslubiyatiga katta hissa qo'shdilar va chizmatasvirni fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular o'qitishning didaktik negizlariga kam e'tibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan Badiiy Akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII asr tasviriy san'atni o'qitish uslubiyati chizmatasvirning fan sifatida to'la-to'kis akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik chizmatasvirniig pedagogik amaliyotda o'qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi «Chizmatasvir akademiyasida» ishlab chiqildi. Aka-uka Karrachilar tomonidan tashkil etilgan Boloniyyadagi yosh musavvir-larga quyidagi usulda saboq bergenlar. Yoshlar dastlab chizmatasvir chizish usullari, qonun-qoidalari bilan tanishganlar, so'ngra gips namunalarini tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini o'ziga qarab rasmini chizganlar. Bu mashg'ulotlarda ular insonning anatomik tuzilishlarini ham chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Boloniya akademiyasi o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul va namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning uslubiyatini davom ettirib 1648-yilda Parij rangtasvir va haykal taroshlik bo'yicha qirollik Akademiyasi, 1660-yili Rimda Badiiy Akademiyasi, 1696-yil Berlinda, 1753-yil Madridda San-Fernando, 1757-yil Peterburg Akademiyasi, 1768-yil London Badiiy Akademiyasi tashkil etilgan (6-rasm).

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan Akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari ham mavjud edi. O'quv adabiyotlari ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamona-sining yirik rassomi edi. U buyuk rangtasvir, chizmatasvir ustasi bo'libgina

qolmay, balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi hamda shogirdlarning mehribon ustozi bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va so'zlashni mukammal bilgan. Antik davr san'atini chuqur bilgan holda o'z shogirdlari o'sha davrda yaratilgan haykallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishni emas, balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga da'vat etgan.

XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Fransiya badiiy maktabalarining rivojlangan markaziga aylandi. Fransuz akademiyasi badiiy ta'lif-tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib kirdi. Ayniqsa u yerda akademik chizmatasvir ishlash borasida talaygina uslubiy yangiliklar yaratilgani ma'lum.

Chizmatasvir va uning o'qitilish usullarini rivojlantirishga mashhur fransuz rangtasvir ustasi Jak Lui David ham katta hissa qo'shdi. Tasvir bajarishda, deb ta'kidlar edi u, har bir bo'lak mukammal, aniq ishlanish, shu bilan bir qatorda ushbu qism yaxlit bir butunlikni tashkil etishi lozim. Inson qomatini tasvirlashda avvalambor uning ichki tuzilishi-skeletini chuqur o'rganib, tashki qiyofasini chizishga o'rgatar edi.

Chizmatasvir o'qitish usullarini rivojlantirishga aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyular ham katta hissa qo'shdilar. 1835-yil ular Parijda yosh rassom va hunarmandlar uchun bepul mакtab olib, shogirdlarga tasviriy san'at bo'yicha saboq berdilar. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning uslubiy bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargohlaridan farqli o'laroq eng murakkab bo'lgan inson qomatini tasvirlashni mukammal o'rganib bo'lgandan keyin gips naqsh namunalarini chizishga o'tilgan. Aka-uka Dyupyuilarning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lif berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi professorlar o'zining xususiy mакtabini targ'ib etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni «Eskirib, bir yerda qotib qolgan» deb hisoblab, ko'p hollarda o'zları yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lмагan usulda ta'lif beradilar.

Xususiy akademiyalarga 40—50 ga yaqin o'quvchilar taklif etilib, ular na kurslarga va na guruhlarga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan. Mashg'ulotlar quyidagi tarzda olib borilgan edi: katta xonanинг bir necha joyida natura qo'yilgan bo'lib, o'quvchilar hech bir yo'nalishiga ega bo'lмагan holda tahsil olar edilar. Dars davomida o'quvchilarga erkinlik berilib, ular xohlagan naturaga qarab rasm chizar edilar. Ko'p hollarda u yoki bu vazifani bajarish uchun aniq maqsad qo'yilmasdi. Shuni

ta'kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida ham aniq yo'naliishga ega bo'lgan o'quv dargohlari mavjud bo'lgan. Jumladan, venger rassomi Shimon Xolloshi (1857—1919) va yugoslav pedagog-rassom (Anton Ashbelar (1862—1905) maktabi diqqatga sazovordir. Yaxshi yo'lga qo'yilgan uslubiy va o'ziga xos ravishda tuzilgan dasturlar assosida o'qitish tizimi ularni butun jahonga mashhur qilgan bo'lib, ushbu maktabdan o'nlab iste'dodli rassomlar yetishib chiqqanlar.

XIX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o'qitish tizimi o'z yo'naliishi jihatdan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Neoimpressionizm, kubizm, ekspressionizm, dadizm, syurrealizm va turli oqimlarning o'zaro ziddiyatlari o'qitish uslubiyatining rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi (7, 8-rasmlar).

**Tasviriy san'at** o'z o'rnidagi haykaltaroshlik, rangtasvir va grafika<sup>1</sup> kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'at voqelikni, borliqni shakllar, chiziqlar, ranglar, bo'yoqlar surtmasi orqali ma'lum bir tekislikda, yuzada, makonda va hokazolarda ijodkor (haykaltarosh, rassomlar) tomonidan tasvirlaydigan san'atdir. Shuningdek, tasviriy san'at monumental va dastgoh ko'rinishlarga ega. Monumental deyilganda, hajm jihatidan bir necha barobar katta me'morchilik, park-bog' san'atiga, shuningdek, asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratilgan asarlar tushuniladi, ularni xohlagan joyga qo'yish, namoyish qilish mumkin bo'ladi.

Tasviriy san'atga mansub zamonaviy keng tarqalgan uslublardan farq qiluvchi yana bir ko'rinish miniatyura<sup>2</sup> san'atidir. Miniatyuralarga xos tasviriy asarlari o'zining ishlanish xarakteri va uslublari bilan alohida ajralib turadi. Miniatyura asarlari tasviriy san'atning rangtasvir va grafika turlariga taalluqlidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, miniatyura san'atidagi asarlar to'g'ri uch o'lchamli chiziqli perspektivaga asoslangan tasviriy san'atdan ma'lum darajada farq qilib, bir tekislik yuzasida tasvirlanishi yoki ba'zan chiziqli perspektiva qonuniyatlariga teskari amal qilgani uchun to'g'ri uch o'lchamli perspektiv qisqarish qonuniyatlaridek xususiyatlarni mukammal yoritib bera oladi deb aytish qiyin. Ammo shu narsa ham ma'lumki, o'tmish miniatyura san'atining o'ziga xos sirlari bo'lib, bu sohada o'rganilmagan badiiy muammolar juda ko'p (9-rasm).

Tasviriy san'atning bir-biridan badiiylik xarakteri va jihatlari bilan farq qiluvchi xususiyatlari haqida to'xtalish maqsadga muvofiq.

<sup>1</sup> **Grafika** — (yunoncha graphike, *grapho* — yozaman, chizaman so'zidan olingan) o'zida chizmatasvir va bosma uslubda ishlangan asarlarni mujassam etgan tasviriy san'at ko'rinishi.

<sup>2</sup> **Miniatyura** — qadimgi qo'lyozma yoki kitoblarga ishlangan mo'jaz sifat. Fil suyagi, metall va hokazolardan kichkina qilib ishlangan haykalcha.

Ta'riflanayotgan tur, janr, ko'inishlar nomlanishidan qaysidir darajada bir-biriga o'xshab ketsa-da, bir-biridan farqlidir. Ana shuning uchun ham birinchisi ikkinchisidan ajralib turuvchi atamalarga izoh bermoqchimiz.

Tasviriy san'atning turlari bir-biridan ishlanishi, materiali, hatto ijodkorning o'ziga xos mutaxassis sifatida alohida bo'lishi tufayli ajralib turadi. Masalan, grafika ustasi bilan rangtasvirchi rassomning faoliyati, ijodiy izlanishlari bir-biridan farq qiluvchi jihatlarga ega. Haykaltarosh esa yanada o'zgacha muhitda, asbob-uskunada, hatto grafika, rangtasvir ustasiga xos bo'limgan sharoitda ijod qiladi. Ammo tasviriy san'atning bu uchta turi asosiy turiga oid ijod qiluvchilar janrlarning barchasiga xos faoliyat yurita olishlari mumkin.

**Rangtasvir** asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devor yuzasiga, shuningdek, boshqa joylarga ishlanadi. Tasvirning mazmuni, xarakteri va shunga o'xhash barcha xususiyatlari bo'yoqlar orqali ifodalab berilsa, bunga rangtasvir san'ati deyiladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkorning ichki kechinmalari, asarda aks ettirilayotgan voqeа mazmuni ranglarni bir-biriga o'z me'yorida qo'shib ishlatish natijasida namoyon bo'ladi. Masalan, qizil va qora bo'yoqlarni qo'shib ishlatilishi fojeani aks ettirsа, och moviy va yashil ranglarni o'ziga xos bog'lashlar natijasida tinch va osoyishtalik holatlari tasivrlanishi mumkin. Rangtasvir san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni o'qiy bilish, idrok eta bilishda ham o'quvchidan jiddiy bilim va malaka talab qiladi. Nina Mi-xaylovna Kevishning «Estetikadan fakultativ kurs»da rangtasvir san'atini nazariy jihatdan o'rgatishning ayrim muammolariga qaratilgan bo'lib, bunda shunday dalillarga duch kelamiz.

«Rangtasvirni o'rganish bosqichlarining har birida hissiy va ko'rsatmali materialning roli juda ham muhim, chunki rangtasvirda tasviriy ko'rsatmasiz ta'lіm va tarbiya jarayonini tashkil qilish mumkin emas. Faqat ko'rsatmalilik ishi (reproduksiyalarni<sup>1</sup> namoyish qilish) yaxshi yo'lga qo'yilgandagina kuzatuvchanlik, faol va yumshoqlik bilan kuzatish malakalari hosil bo'ladi, bu esa rasmlarni idrok etish va tahlil qilish tajribasida zarurdir».

N. M. Kevishning yuqoridagi ta'riflariga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, bugungi texnik taraqqiyot turli rangli filmlar yaratish imkoniyatiga ega, shuningdek videotasvirlarga olib, ta'lіm jarayonida foydalanish mumkin. Ammo shuni ham aytib o'tish kerakki, hech qanday rangli film, video yoki kompyuter tasvirlari haqiqiy rangtasvir san'at asaridagi ruhiy, tabiiy va boshqa professionallikka xos imkoniyatlarni to'la-to'kis yoritib bera olmaydi. Tasviriy san'atning o'ziga xos nafis bu turi insoniyat tafakkurining noyob namunasi sifatida kishilarni necha asrlardan beri rom qilib kelmoqda. O'zbekiston hududida ham qadimdan rangtasvir san'ati taraqqiy etganligini Afrosiyobdagи devoriy rasmlar, Varaxsha va Bolaliktepa

<sup>1</sup> Reproduksiya — tasviriy san'at asaridan chop etilgan nusxa.

tasviriy san'at namunalaridan bilish mumkin. Bu o'tmish rangtasvir san'ati ajdodlarimizning go'zallik borasida erishgan yutuqlarini hikoya qilib qolmasdan, tarix sirlarini ochib beruvchi ko'zgu vazifasini ham bajara oladi. Rangtasvir san'atining mashhur vakillaridan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryulov, Anri Matiss, o'zbekistonlik mashhur rangtasvir ustalaridan O'rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiiev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Yigitali Tursunnazarov, Chori Bekmirov, Alisher Alimqulov, Shavkat Bahriiddinov va boshqa bir qancha rassomlarni aytish mumkin. Mashhur rangtasvir ustalaridan Chingiz Axmarov, Rahim Ahmedov kabilar o'nlab san'atkor, shogirdlar tayyorlashgan. Rangtasvir san'ati o'z o'rnida monumental, dastgoh va dekorativ bezak ko'rinishlariga ajraladi. Monumentallik me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, unda ijtimoiy hayot voqealari o'z aksini topadi hamda bu uzoq masofadan ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi.

**Monumental ko'rinishdagi rangtasvir** san'ati o'z o'rnida freska<sup>1</sup> — to'g'ri devor yuzasiga ishlanadi. Mozaika<sup>2</sup> turli ranglar, toshlar, shishalar, sirli sopollarning devorda ishlatilishidir. Panno<sup>3</sup> maxsus to'rburchak va raqamlar ichiga olib tasvirlanadi. Ayrim hollarda esa matoga moybo'yoqda ishlanib olib, keyinchalik mo'ljallangan joyga ishlatiladi. **Dekorativ rangtasvir** san'ati o'z nomidan ko'rini turibdiki, bezash vazifasini bajaradi, asosan teatr, kino va boshqa shunga o'xhash-sohalarda qo'llaniladi. Bu joylarda albatta, rangtasvir san'atining mazmuni birdaniga yuzaga chiqavermaydi. Umuman, dekorativ rangtasvir san'ati hayotning, insoniyat turmush tarzining ko'pgina qirralariga kirib borgan. Tasviriy san'atning ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganishda janrlariga alohida e'tibor bermoq lozim.

**Portret janri** insonning yuz qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog'langan holda tasvirlaydi. Shu asno aniq bir obraz yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portret insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki, ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishdagi barcha xislatlarini aks ettirish bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. Ma'lumki, har bir insonning ichki dunyosi, go'zalligi, tabiat bergen andozasi mavjud. «Inson va uning bepoyon ichki dunyosi hamisha rassomlarning asosiy diqqat-e'tibori va izlanishi uchun predmet bo'lib kelgan. Inson va uning xatti-harakati, ruhiy dunyosi, psixologiyasi ehtimol, abadul abad olimlarning ilmiy faoliyatlarini uchun asosiy omil bo'lib qolar». Darhaqiqat shunday ekan, insonlar obraziga qaratilgan portret san'atini bo'lajak rassom-pedagoglar har jihatdan bilishi

<sup>1</sup> Freska — devorda ishlangan rasm.

<sup>2</sup> Mozaika — rang-barang shisha, toshchalar, yog'och fanera, charm qiyqimlaridan bir-biriga zich qilib yonma-yon yopishtirilgan (yoki naqshlar ishlangan) rasm.

<sup>3</sup> Panno — dekorativ uslubda ishlangan san'at asari, matoda (xolstda) yoki kartonda bajariladi. Ma'lum joylarni bezashda ishlatiladi.

nihoyatda muhimdir. Portretchi rassom odamlarga xos turli jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. San'atkorning mashaqqatlari mehnati o'ta kuzatuvchanlik, nozik va qaltis damlarni ilg'ay bilish qobiliyati, shu jihatlarni o'z qalami bilan tasvirlay olishi orqasida yuzaga keladi. Tasviriy san'atning portret janri san'atning boshqa sohalaridan shuning uchun ham farq qiladi. Portret san'atini yaratishda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinci, Rembrant, shuningdek, hozirgi zamон o'zbek rassomlaridan Rahim Ahmedov, Abdulhaq Abdullayev, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Bahodir Jalolov va boshqa bir qancha rassomlarini keltirish mumkin.

**Natyurmort** fransucha «jonsiz tabiat» degan ma'noni bildiradi. Odamlar hayotida ishlataladigan buyum, narsalar, sabzavot va mevalar, asbob-uskuna kabilariga o'xshash namunalarning tasviri aniq bir mazmunni, ma'noni beradigan tasviriy san'at janriga natyurmort janri deyiladi.

Ma'lumki, xar bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o'zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlar vazifasini bajaradi. Lekin bu natyurmort san'at sifatida boshlang'ich vazifa bilan cheklanib qoladi, degan ma'noni bermaydi. Vaholanki, natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta izlanishlarni ham talab qiladi.

«Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan birga mavzu jihatdan suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishda ko'maklashuvchi, uni to'ldiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi». Tasviriy san'at tarixida Vilyam Klass Xeda, Jan Batist-Simon Sharden, Frans Snayderes, Yan Van Geymus, Rahim Ahmedov, Javlon Umarbekov, Akmal Ikromjonov, Yigitali Tursunnazarov, Chori Bekmirov, Shavkat Bahriiddinov va boshqa shularga o'xshash natyurmort san'atining mohir ustalari mayjud.

**Manzara janri** tabiatdagи turli ko'rinishlarning tasviriy san'atda aks ettirilishidir. Tog', o'rmon, dengiz, shahar va qishloq manzaralarining ko'rinishlari aniq bir mazmunni berib, hayotiy ma'noni anglatса va shu ko'rinishda maqsad-mazmunga ega bo'lsa, bunday asarlar manzara janriga tegishlidir. Gap manzara janri haqida ketar ekan, manzaraning mohir ustasi Klod Loren, Shishkin, Levitan, Karaxan, Tansiqboyev va boshqa mashhur rassomlarni bu borada misol keltirish mumkin. Manzarachi rassomning shakllanishida ham o'ziga xos sirlari bor. Buning uchun tabiatni sevish, uni kuzatish va ayniqsa, rang lavhalar, ya'ni etyudlar ustida ishlay bilish talab qilinadi. Chunki tabiatning har bir kichik bo'lagida butun bir olamga xos mazmun va ma'no yetadi. Bu borada O'zbekiston tabiatining sermazmun manzaralarini tasvirlagan N. G. Karaxan ijodi diqqatga sazovordir.

«Karaxan ko'p sayohat qildi. Chunki u tabiat bilan doim muloqotda bo'lishni, muttasil mashq qilishni rassomlik mahoratining ma'nosи deb tushunardi. U Toshkent atroflarini, Nanay va Bo'stonliq tog' so'qmoqlarini kezdi, Buxoro va Samarqandda bo'lib, qayerda yangilik yaratilayotgan

bo'lsa, o'sha yerni kuzatishga intildi. Uning yaratgan etyudlariga qarab, hatto yangi GES lar, ko'priklar, kanallar yoki yangi sanoat kompleksi qurila boshlagani va bunyod etilgani sanalarini aniqlash mumkin. Ular o'lkamizdag'i o'zgarishlar tarixini aks ettiruvchi lirik lavhalardandir.

Etyudlarda rassomning kompozitsiyaviy qarashi, tabiatdan uning muhim belgilarni, mavzuni va rango-rangligi qonuniyatlarini mujassam etgan tipik motivlarni topa bilish xislatlarini ko'ramiz».

Tarixiy janrdagi asarlarda tarixiy voqealar tarixiy obrazlarda aks ettirilsa, **batal janrida**<sup>1</sup> tarixiy jang voqealari, harbiy obrazlar tasvirlanadi.

**Animal janri**<sup>2</sup> majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san'at asarlardir. Bunga asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qiyofalari va shunday obrazlar orqali hayat voqealari aks ettiriladi. Olib borilgan tadqiqot ilmiy, mulohaza yuritishlar natijasini yanada soddaroq qilib ko'rsatish maqsadida quyidagi 1 grafik tasvir ishlab chiqadi. Tasviriy san'at tur va janrlarini nazariy jihatdan o'rganish, shuningdek, talaba o'quvchilarga mashg'ulot yoki suhbat jarayonlarida ushbu grafik tasvirni ko'rgazma qurol sifatida tayyorlab foydalanilsa qo'l keladi, degan fikrdamiz. O'z o'mida yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'rgatishning uslubiy asosları, yo'l-yo'riqlari uslubiy jihatdan alohida o'ziga xos bo'lgani uchun masalaning bu jihatiga to'xtay olmadik.

Umuman, tasviriy san'at sirlarini yoshlarga o'rgatish uchun nazariy bilimlar, ya'ni tasviriy san'atning ko'rinish, tur va janrlari bir qarashda oddiy bo'lib tuyulsa-da, bu bilimlar badiiy ta'lim va tarbiya berishning alibosi hisoblanadi. Zotan, bu tasviriy san'at sohasida jamiyatimizning har bir vakilini fahm-farosatli bo'lishiga undaydi.

## RANGLARNING XUSUSIYATLARI

Rang — biror narsa, predmetning xususiyati bo'lib, inson uni ko'zi bilan ko'rib, aqli bilan idrok etadi. Inson rangni ko'rish uchun esa albatta nur kerak bo'ladi. Demak, rangni his qilish uchun uchta faktor: nur, ko'z va aql-idrok kerak bo'lar ekan.

Nur insoniyat uchun juda muhim omillardan biri hisoblanadi. Nur ikki xil bo'lib:

- 1) tabiiy quyosh nuri;
- 2) sun'iy (har xil yoritish asboblari) nurlardan iboratdir.

Quyosh nuri shaffof yomg'ir tomchilariga turli xil burchak ostida sinib, osmonda kamalak hosil qiladi. Demak, nur biror yuzaga tushib, u yerda yutilishi, qaytishi va sinishi mumkin.

Nurning qaytishini ko'rib chiqaylik: nur biror yuzaga tushib, u yerdan to'liq qaytsa, bu predmet oq rang bo'lib ko'rindi. Tushayotgan nur biror

<sup>1</sup> **Batal janrida** — tarixiy jang voqealari, harbiy obrazlar tasvirlanadi.

<sup>2</sup> **Animal janri** — (lotincha — hayvon, jonivor so'zidan olingan) hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.

yuzada yutilsa, u holda bu yuza qora rang bo'lib ko'rinati. Yutilayotgan nuring miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, yuza shunchalik qop-qora va aksincha, qanchalik nur ko'p qaytadigan bo'lsa, yuza shunchalik oppoq ko'rinati.

Biror yuzaga tushayotgan nuring bir qismi yutilib, qolgani qaytsa bu yuza qaytgan nuring rangida bo'ladi.

Masalan, nuring hamma qismi yutilib, faqat qizil spektr rangi qaytsa, bu yuza qizil rangda bo'lib ko'rinati. Yashil rang qaytsa, yuza yashil rangda bo'ladi.

Inson ko'zi bilan ajratadigan barcha ranglar ikki xil, ya'ni, axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi.

**Axromatik ranglarga** oq rangdan qora ranggacha bo'lgan barcha oraliq ranglar kiradi.

**Xromatik ranglar** oq va qora ranglar orasida barcha kul ranglardan tashqari biror tusga ega bo'lgan barcha ranglar kiradi. Masalan: qizil, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo. Xromatik ranglarni inson ko'zi bilan 2100 tasini ajratishi mumkin. Rangshunoslikda uchta asosiy ranglar: qizil, sariq va ko'k ranglar mayjud. Qolgan barcha ranglar shu uchta ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi.

Barcha ranglar o'zining ta'siri, his qilishi bo'yicha turli xususiyatlarga ega. Og'ir va yengil ranglar. Og'ir ranglarga to'q va qora ranglar kiradi. Yengil ranglarga esa och va oq ranglar kiradi. Ranglarning bu xususiyatlarini tushunish uchun ikkita to'rtburchak olib, birining uchidan bir qismini yuqori tomondan oq rangga, pastki qismini qora rangga bo'lsak ikkita to'rtburchakni, pastki tomondan uchdan bir qismini oq rangga bo'yab yuqori qismini qora rangga bo'yasak, yuqori qism qora rangga bo'lgan to'rtburchak g'ayritabiyy ko'rinati. Bunga sabab, oq rang — yengil; qora rang esa og'ir rang hisoblanadi. Shuning uchun ham yengil ranglarni yuqori qismiga, og'ir ranglarni pastki qismiga joylashtirish kerak. Bu qoidani hamma vaqt qo'llash kerak.

## ISSIQ VA SOVUQ RANGLAR

Ranglar his qilishga ko'ra issiq vasovq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olovni, quyoshni eslatuvchi ranglar: qizil, sariq, jigarrang va ulardan hosil bo'lgan boshqa ranglar kiradi. Sovuq ranglarga qorni, muzni eslatuvchi ranglar: ko'k, yashil, oq va ulardan hosil bo'lgan ranglar kiradi. Sovuq ranglarga qaraganda kishida sovuqlik hissi uyg'onadi. Issiq ranglarga qaraganda esa issiqlik hissi uyg'onadi. Bulardan tashqari issiq ranglar yaqinlashtirib ko'rsatish, sovuq ranglar esa uzoqlashtirib ko'rsatish xususiyatiga ega. Bunga yanada ishonch hosil qilish uchun psixologik tajriba o'tkazish mumkin. Ikkita bir xil rangdagi doira olib, birini sovuq ranglardan havo rangga, ikkinchisini issiq ranglardan qizil rangga bo'yaymiz, ularni yonma-yon qo'yib, sinchiklab nazar solsak, qizil rangga bo'yalgan doira yaqinroq turganga o'xshab, havorangga bo'yalgan rang uzoqroq turganga o'xshaydi.

Rang kontrasti deb ikki yonma-yon turgan ranglarni bir-biriga ta'siriga aytildi. Rang kontrasti axromatik va xromatik kontrastlarga bo'linadi.

## RANGLARNI ARALASHTIRISH QOIDALARI

Ranglarni aralashtirish qoidasi rangtasvir san'ati asarlarini yaratishda katta ahamiyatga egadir. San'at asarlarining nafis ranglari toza chiqishi uchun ranglarni aralashtirish qoidasini bilish kerak. Buning uchun rang doirasini hosil qilishni o'rganamiz. Uchta asosiy rangni doiraning uchdan bir qismiga joylashtiramiz. Uchta asosiy rang — qizil, sariq va ko'k ranglardan ikkitasini o'zaro aralashtirib, yashil, olovrang va binafsa ranglar hosil qilamiz. Hosil bo'lgan 6 ta ranglarni yana o'zaro aralashtirib, yana yangi ranglarni hosil qilamiz. Bu ranglarni oqimtirlash yoki qoramtlash orqali yana juda ko'p ranglar hosil qilamiz. Rangni aralashtirishning asosiy qoidasi rang doirasi bo'yicha yaqin turgan ranglarni o'zaro aralashtirib, yangi rang hosil qilish kerak, aks holda rang doirasida qarama-qarshi turgan ranglarni o'zaro aralashtirilsa axromatik rang, ya'ni biror aniq tusga ega bo'lmagan rang hosil bo'ladi, bu esa eng xunuk rang hisoblanadi. Masalan, sariq, ko'k va qizil ranglarni o'zaro aralashtirsak, biror aniq tusga ega toza rang hosil bo'ladi, demak rangtasvir san'at asari nafis chiqishi uchun toza ranglardan bir-biriga yaqin turgan ranglarni o'zaro aralashtirib yangi rang hosil qilib ishlatalish kerak (10, 11-rasmlar).

Rangtasvir fanining asosiy maqsadi o'quvchilarga tasvir mazmuni, xarakterini ifodalashda ularning badiiy tafakkurini ijodiy rivojlantirishga qaratilgandir. O'qishning hamma bosqichlarida ishlarni kompozitsiya qonunlariga amal qilgan holda joylashtirish, tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o'xshash barcha xususiyatlarni bo'yoqlar orqali ifodalab borishga qaratilgan bo'lib, bular ko'plab mashqlar orqali o'z fikrini aniq ochib berishga o'rgatadi.

O'quv rejada talabalarni rangtasvir san'ati ishlatiladigan ashyolar, akvarel<sup>1</sup>, guash<sup>2</sup>, tempera<sup>3</sup> va moy bo'yoqlarda ishlash sirlarini har tomonlama o'rganish ko'zda tutilgan. Realistik asarlar yaratish jarayonida talabalar ko'rsatilgan texnikada ishlash sirlarini o'rganadilar.

Rangtasvir san'ati o'z o'rnida monumental dastgohli rangtasvir, dekorativ bezak ko'rinishida bo'ladi. Monumentallik ko'rinishda ijtimoiy hayot voqealari aks ettiriladi va uzoq masofadan ko'rish mo'ljallanadi. Monumental ko'rinishdagi rangtasvir san'atining to'g'ri devor yuzasiga

<sup>1</sup> Akvarel — (fransuzcha *aquarelle*, italyancha *aquerello*, lotinchcha *agua* — suv so'zidan olingan) suv bo'yoq (odatda, o'simlik yelimidan tayyorlanadi).

<sup>2</sup> Guash — (fransuzcha *gouach*, italyancha *guarro* — suv bo'yoq) tarkibida suv, yelim bog'lovchisi bo'lgan ezilgan pigment (gummiarabik, bug'doy kraxmali, dektrin va boshq.) va belila aralashmasidan iborat bo'lgan suv bilan ishlanadigan bo'yoqlar. Amaliy bezak san'ati va rangtasvirda keng qo'llaniladi.

<sup>3</sup> Tempera — (italyancha *temperare* — bo'yoqlarni aralashtirish ma'nosini anglatadi) tuxum sarig'iga emulsiya, suvda eritilgan o'simlik yoki hayvon yelimi va yog' qo'shib tayyorlangan bo'yoq.

ishlanishi freska; shishalardan ishlanishi sgrafitto, vitraj; smalta, sirli sopollarning devorda ishlanishi mozaika deb yuritiladi.

Dekorativ rangtasvir san'ati bezash vazifasini o'taydi. Teatr, kino va shunga o'xhash sohalarda qo'llaniladi. Rangtasvir san'ati ajdodlarimizning go'zallik borasida erishgan yutuqlarini hikoya qilibgina qolmasdan, tarix sirlarini ohib beruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi.

## RANGTASVIRDA QO'LLANILADIGAN ASBOB-USKUNALAR

Rangtasvirda ko'p ishlatiladigan bo'yoq turlaridan biri (akvarel) suv bo'yoqdir.

Suv bo'yoqda ishslash uchun quyidagi asbob-uskunalar zarur bo'ladi:

- 1) planshet — taxta tayyorlash va unga qog'oz tortish;
- 2) vatman «Gosznak» qog'oz;

3) suv bo'yoq'i uchun moyqalam №10 dan №24 gacha. Suv bo'yoq uchun moyqalamlarning eng yaxshisi suvgaga botirganda uning uchi ingichka bo'lishi kerak.

Rang qatlamini yuvish uchun yumshoq latta yoki moyqalam ishlatiladi. Suv bo'yoq uchun moyqalamlar uch xil turda bo'ladi: kolonkoviy tukidan och jigarrangda, suv kalamushi (xoryok) tukidan qora rangda va belka (olmaxon) tukidan to'q jigarrangda bo'ladi. Guashda ham vatman qog'oz, kartonda ishlanadi. Moyqalamlardan belka (olmaxon), xoryokli, kolonkoviy ishlatiladi, lekin ular har xil nomerlarda — kichkina va katta bo'lishi kerak. Katta tekisliklarni bo'yashda — fleys (katta yapaloq moyqalam) kerak. Temperada ham shu ashylar ishlatiladi.

Moybo'yoqda ishslashda kerakli asbob-uskunalar:

- 1) podramnik (ramka — taxta);
- 2) mato;
- 3) kolonkoviy va shchetini (yapaloq moyqalamlar har xil nomerda);
- 4) razbavitel;
- 5) moy;
- 6) lak<sup>1</sup>;
- 7) mastixin<sup>2</sup>;
- 8) palitra (bo'yoqlarni qoralashtirish uchun).

Bu materiallarga darslar davomida batafsil ma'lumot berilib, ulardan qanday foydalanish o'rgatib boriladi (12, 13-rasmlar).

<sup>1</sup> **Lak** — guashda, temperada ishlangan rangli tasvirlarning ustiga qoplashda ishlatilgan maxsus eritma. Loklar ishlatilishiga ko'ra har xil markali bo'ladi. Guashda, temperada ishlangan rangtasvirlar uchun duradgorlikda ishlatiladigan laklardan foydalaniladi. Moybo'yoqlarida ishlangan rangli tasvirlar uchun esa alohida lak qollaniladi.

<sup>2</sup> **Mastixin** — (italyancha mestichino) po'latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina. Rangtasvir ishslashda qo'llaniladi.

### 1-BOSQICH, I-SEMESTR

#### 1-mavzu. Suv bo'yq, guash va tempera bo'yoqlari tarixi, xususiyatlari haqida suhbat, amaliy mashqlar

Kasb-hunar kollejlarining rangtasvir yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qitishda akvarel (suv bo'yq), guash, tempera va moybo'yoqlar keng ko'lamma ishlataladigan ashyolardir. Realistik asarlar yaratishda talabalar ashyolarda ishlashning har xil usullari bilan tanishadilar. O'quvchining bundan olgan saboqlari ularning keyingi ijodiy ishlariga katta yordam beradi.

Suv bo'yq (akvarel) tarkibida maydalangan kukunga o'xshash tabiiy ranglar, uni qovushtirish uchun asal qo'shiladi. Suv bo'yq suv bilan aralashtirilib ishlataladi, bu esa uning tiniq va tez ishlashga yordam beradi. Nozik joylarda u tiniq, qalin mazoklarda esa yopuvchi bo'ladi. Suv bo'yoqning eng yaxshi tomoni shuki, unda ishlanganda rangning tiniqligi va tozaligini olish, shu bilan birga undan bir mazokni ustiga ikkinchi mazok qo'yish, katta tekislik yopish mumkin, mayda detallarni cho'tkaning uchi bilan ishslash mumkin.

Suv bo'yq bilan ishlashda juda ehtiyyotlikni talab qiladi, chunki ehtiyyotsizlik bilan qo'yilgan mazokni<sup>1</sup> suv bo'yoqda tuzatib bo'lmaydi. Shuning uchun rassom quntli va chidamli bo'lishi kerak. Ishga kirishishdan oldin qog'oz tanlash kerak bo'ladi. Chunki suv bo'yq qog'ozda ishlanadi, qog'oz oppoq va ozgina bo'lsa ham gadir-budir bo'lishi kerak, agar u silliq bo'lsa, unda suv bo'yq oqib ketib qoladi. Gadir-budir (sheroxovatiy) yuzada esa suv bo'yq qog'ozning ichiga singiydi va yelim bilan yopishadi. Qog'ozlarning eng yaxshisi «vatman yoki poluvatman»dir. Agar qog'oz ingichka bo'lib yoki o'ziga tez suv tortsa, unga suv bo'yoqda ishlab bo'lmaydi, chunki qog'oz tez ho'l bo'lib, unga bo'yq yoyilib ketib chizma o'z aniqligini yoqotadi.

Qog'oz albatta planshet-taxtaga tortilgan bo'lishi kerak, agar qog'ozni shunday o'ziga ishlansa, suv tegish oqibatida qog'oz burama bo'lib, unda ishlab bo'lmaydi. Planshet-taxta har xil o'lchamda bo'lishi mumkin.

Talabalar uchun asosan planshet-taxta chizmachilik qog'ozining ikkidan bir o'lchamida tayyorlanadi. Qog'ozlar formatlik yoki o'rog'lik (rulon) holatda bo'ladi.

O'rog'lik qog'oz planshet-taxtaga tortilib plakat ishlashda, bezak ishlarni bajarish uchun ishlataladi. O'rog'lik qog'ozlar eni 100 sm yoki 200 sm bo'lishi mumkin. Qog'ozni tejab ishlatish uchun planshet-taxta qog'oz o'lchamiga mos kelishi kerak.

<sup>1</sup> **Mazok** — surtma, mo'yqalamda keskin va uzib-uzib ishslash, bunda asosan mo'yqalamning qog'ozda qoldirgan xarakterli izlari ko'zda tutiladi.

1. Planshet-taxtaga qog'oz tortish uchun uning ikki tomoni suvda ho'llanadi. Qog'oz ozgina qurigandan so'ng planshet-taxta qog'oz ustidan tekis holda qo'yiladi. Qog'oz planshet-taxta ustida tekis yopishib turishi, unda gadir-budir joy bo'lmasligi kerak. Planshet-taxtaga yopishtirish uchun qog'oz atrofidan 20—25 sm ortiqcha joy bo'lishi kerak.

2. Planshet-taxta qog'oz bilan to'ntarilib, qog'ozning o'rta qismidan chekka yonlariga qarab qo'l bilan sekin tortiladi.

3. Qog'oz yonlari planshet-taxtaga yelim, knopka yoki steplerda yopishtirib chiqiladi.

4. Qog'ozning burchaklari yaxshilab yopishtiriladi, burchaklarda burishgan joylari bo'lmasligi kerak. Eng muhim bo'yoqlardan quyidagilar bo'lishi muhim: qadimiy-qizil, qadimiy-sariq, ko'k ranglardan — ultramarin yoki kobolt-ko'k. Boshqa yorqin ranglardan: qizil-karaplak, yashil-izumrud, binafsha-kobalt, jigarranglardan oxra jiyonnaya, umbra naturalnaya va umbra jiyonnaya. Qora ranglardan: vinogradnaya qora, kost jiyonnaya. Oq bo'yoq kerak emas, chunki oq rangning o'rniq qog'ozning o'zi ishlatiladi.

## AMALIY MASHG'ULOT

Suv bo'yoq texnikalari bilan tanishish uchun bir necha xil mashqlar qilish kerak bo'ladi. Suv bo'yoqni aralashtirish uchun emalli yoki chinni palitra ishlatiladi, suv bo'yoqning plastmassa qutisi yoki chinni yapaloq likopcha ham palitra o'rniда bo'lishi mumkin. Suv bo'yoqda ishlashda planshet-taxtani tikka qilib yoki gorizontal qo'yish maqsadga muvofiq emas, chunki tikka qo'ysak bo'yoq oqib ketsa gorizontal holda bir joyda yig'ilib qoladi. Shuning uchun planshet-taxtani qiyshaytirib ishlash kerak.

Suv bo'yoqni tekislikka qanday yopishishini ko'rish uchun to'rtburchak yoki kvadrat chizib olib uni har xil ranglar bilan (zalivka) bo'yash kerak bo'ladi. Qog'oz yuzasini bir maromda bo'yashni o'rganish uchun tanlab olingan bo'yoq suv bilan aralashtiriladi va gorizontal chiziqdagi bo'yaladi. Keyin cho'tkada yana ko'proq rang olib ikkinchi chiziq tortiladi. Uni shunday o'tkazish kerakki, ikkinchi chiziq birinchi chiziqning tagiga tegishi kerak. O'z og'irligi bilan tepadagi bo'yoqli chiziq pastki bo'yoqli chiziq bilan aralashib qo'shilib ketadi. Bunda bir rangning ikkinchi rangga ta'sirini ko'ramiz. Xuddi shu texnikada yana bir necha mashqlar qilinadi. Unda har xil ranglarni palitraga<sup>1</sup> aralashtirib, keyin qog'ozga cho'tkada chiziqlar tortiladi. Bunda bir xil rangdagi chiziqlarni ko'rishimiz mumkin. Bular keyinroq natyurmort va boshqa vazifalarni bajarishga kerak bo'ladi.

<sup>1</sup> Palitra — rassom rasm ishlayotgan paytda bo'yoqlarini qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakash.

O'quv mashg'ulotlaridan natyurmort yozishda predmetlar (shakllar) qunt bilan o'rganiladi. Ular bir necha seansda yoziladi, o'shanda astasekin mazoklarda bo'yoqlarni bir-birining ustiga yotqiziladi. Shunda ko'zlangan maqsadga erishiladi. Ranglarning kir yoki rangsiz qorayib qolmasligi uchun bo'yoqlarni ikki, uchtadan ortiq bir-biriga qo'shish tavsiya etilmaydi. Kerakli tonni olish uchun ranglarni bir-birining ustiga qo'yish bilan erishish lozim. Agar natyurmortda ko'zachaning sovuq tomonini olish kerak bo'lsa avvalo uni och yashil rangda olib, qurigandan keyin ustiga ko'k ranglar bilan yopiladi.

Suv bo'yoqda ishslashning asosiy uchta qonunlarini eslab qolish kerak:

1) kerakli rangni ko'p miqdorda aralashtirish uchun cho'tkani suvgaga bo'ktirib olish kerak;

2) qo'yilgan rang to qurimaguncha uning ustiga ikkinchi rangni qo'yib bo'lmaydi, ikkinchi rang birinchi rangni yuvib yubormasligini ta'minlash lozim;

3) oq bo'yoq suv bo'yoqda ishlatilmaydi, uning rolini oq qog'oz bajaradi.

Suv bo'yoqda shuni inobatga olish kerakki, u quriganda ranglar ocharadi. Rangtasvirda suv bo'yoqda ishslash shunday tartibda qo'yilganki, uning texnik qoidalari, avvalo qog'ozda yorug' tonlar tortilib «bliklar» (yaltiroq joylar) qoldiriladi, ashylolarning to'q joylari asta-sekin yopiladi.

Agar ish jarayonida ba'zi joylarni o'chirishga to'g'ri kelsa, uni «gubka» yoki yumshoq latta bilan yuvib tashlanadi.

Suv bo'yoqda yana bir ishslash usuli bu «ho'l» holatdir. Bu usulda ranglar bir-biriga qo'shilib, kutilmagan ajoyib ranglar paydo bo'ladi. Bu usulda ishslash uchun avvalo qog'oz ho'llaniladi, uning tez qurib qolmasligi uchun tagiga ho'l karton qo'yiladi. Bu esa o'z tomonida ishni ranglar bilan tuzatish, bir tondan ikkinchi tonga sekin o'tish, och tonga qo'shimcha rang qo'shib uni kuchaytirish, juda to'q joylarni ochaytirish, ortiqcha ranglarni quruq cho'tkada olish imkonini beradi. Suv bo'yoqda ishslash aniq chizmani va bu bo'yoqda ishslashni takomil bilishni talab qiladi. Unda quruq mazoklarda ishlab bo'lmaydi. Ranglarning bir-biriga qo'shilib ketgan joylarini tuzatib bo'lmaydi. Shuning uchun «ho'l» texnikada ishslash deyiladi, chunki qog'ozning bir xil ho'lligini saqlash qiyin.

## GUASH

Guash bo'yog'i o'zining tuzilishida suv bo'yoqdan juda ham farqi katta, tarkibi suv bo'yoqqa o'xshasa-da, uning asosiy farqi u bilan bo'yalganda tiniq rang bermaydi, chunki uning tarkibida oq bo'yoq bor. Guash ham suv bo'yoqqa o'xshab suv bilan oson aralashadi. Quriganda esa ranglar juda oqarib qoladi. Guash bilan katta tekisliklarni bir tekisda

bo'yash mumkin, unda to'q bo'yoq och bo'yoqni oson bekitadi. Bu jihatidan guash har xil texnikada ishlatilishi mumkin, tiniq va qalin mazoklarda ozgina suv qo'shish yo'li bilan suyuq qilib yozishda ham qo'l keladi. Lekin qalin mazokda ishlash ehtiyyotkorlikni talab qiladi, chunki qalin mazok yorilishi yoki ko'chib ketishi mumkin. Bular qog'ozda yoki kartonda ishlaganda bo'ladi. Guash bo'yoqlarining to'q rang joylari quriganda ocharib ketishi ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun ish boshlashda shularni hisobga olishga to'g'ri keladi. Ish davomida bo'yoqlarga oq (belila) rang qo'shishga uncha qiziqib ketish kerak emas. Unda etyudlar<sup>1</sup> rangi o'chib, oqarib ketadi (14-rasm).

## TEMPERA

Tempera bo'yog'i o'zinig mustahkamligi jihatni bilan moy bo'yoqdan ancha ustun turadi, unda dastgohli rangtasvir va dekorativ kompozitsiyalar ishslash mumkin.


Tempera bo'yoqlari pigment<sup>2</sup>lar va uni qorishtiradigan emulsiyadan iborat. Emulsiyaning tarkibiga qarab tempera bir necha xildan iborat. Bular tuxum oqi, tuxum sarig'i, tuxum-moyli, voskli, kazein yelimlarga ajraladi. Sotuvda tempera bo'yoqlari tyubiklarda sotiladi. Tempera bo'yoqlari suvda aralashtirib ishlatiladi. Tempera bo'yoqlari usuli alohida tayyorlangan taxtalarga, ko'p qavatlari fanerlarga, kartonda, qog'oz ustida ishlanadi. Taxta, faner, matolar yelimlanib, keyin gruntlanadi, ular qog'oz va kartonni yelimlasa kifoya. Tempera bo'yoqlarda ko'pincha taxtar-ramkada tortilgan mato ishlatiladi. Uni ashyolash xuddi moy bo'yoq uchun tayyorlangandek tayyorlanadi (16-rasm).

Moyqalamlar tempera bo'yoqlari uchun shchetinnoviy, kolonkoviy va belichiylar ishlatiladi. Har ishdan keyin cho'tkalar albatta suv bilan sovunlab yuviladi. Agar ular qurib qolsa suvda erimaydi. Tempera uchun chinni yoki plastmassali palitralar ishlatiladi. Bo'yoqlar uchun palitradada chuqurchalar bo'lishi kerak. Ishdan keyin palitranning ishchi qismi tozalanadi va keyin ishni davom ettirish uchun qolgan bo'yoqlar usti ho'l latta bilan yopib qo'yiladi.

Tempera bo'yoqlarida ishlangan asarlar yorilmaydi, bo'yagan joylari yaxshi saqlanadi. O'zining yorug' va toza ranglarini juda ko'p saqlaydi. Tempera texnikasida moy bo'yoqqa o'xshab har xil yozish mumkin. Unda ham allaprima (bir martada) qalin, lesirovkada va bir necha kun yozsa

<sup>1</sup> Etyud — (fransuzcha «organish» degan so'zidan olingan. Bevosita naturadan ishlangan kichik lavha, xomaki rasm.

<sup>2</sup> Pigment — turli bo'yoqlar kukuni.




1-rasm. «Sarmishsoy tasvirlari».



2-rasm. Samarqand. Afrosiyob. Devoriy rangli tasvir. VI—VII asr. Lavha.



3-rasm. Tir oroli. Er. ol. XVI asr.



4-rasm. Misr. Devoriy rasmdan lavha.  
Userxeta Fiva. Er. ol. XIV asr.




5-rasm.  
Leonardo da Vinchi.  
«Madonna Litta». 1490-y.




6-rasm. Frans Xals. XVI asr.



7-rasm. Vinsent Van-Gog. «Arlsk ayolları». 1888-y.



8-rasm. Pol Gogen. 1893-y.



9-rasm. «Cho'pon». Isfahon maktabi. 1634-y.



10-rasm. Ranglarni aralashtirish qoidalariga misollar.



11-rasm. Ranglar doirasi va och-to‘qligi.



O'quv naturmorti. Guash.



12-rasm. Suv bo'yonda ishlataladigan cho'tkalar.



13-rasm. Palitra.







15-rasm. Greyzalda natyurmort ishlash.


O‘quv natyurmortlari, döşemalar bilan



16-rasm. O‘quv natyurmort temperi. Subxonov S.




18-rasm. Igrashev M. Natyurmortning turli nuqtalardan ko‘rinishi.




21-rasm. Rangtasvirda portret ishlash bosqichlari.




19-rasm. Natyurmort.




20-rasm. Bekmirov Sh. «Natyurmort».




22-rasm. Bekmirov Sh. «Natyurmort».




23-rasm. Xolov M. «Portret».




24-rasm.  
Bekmirov Sh. «Malika» portreti.




25-rasm.  
Muinov O.  
«Uvaysiy» portreti.




26-rasm. Muminov O. «Ayol» portreti.



26-rasm. Muminov O. «Ayol» portreti.



27-rasm. Interyerdagi odamning to‘liq gavdasi. III kurs.




28-rasm. «Naturshik».

29-rasm. Bekmirov Sh. «Naturshik». III kurs.



30-rasm. Bekmirov Sh.  
Natyurmort gullar bilan.



31-rasm. Jalilov X.  
Kompozitsion natyurmort.

bo'ladi. Uni ko'p quritishga hojat yo'q, u bir kunda quriydi. Uning ustidan ertasi ham ishlanaveradi. Bo'yoq bir maromda quriydi. Agar kerak bo'lsa ho'l cho'tka bilan etyudning ustidan bir marta o'tilsa ranglar bir-biriga qo'shilib mustahkam turadi. Temperaning dekorativ jihatni mahobatli asarlarda ko'p qo'llaniladi. Tempera bo'yog'ini tushunish uchun temperali rangtasvirda avval uncha qiyin bo'lmanan ikki-uch predmetdan iborat natyurmort qo'yiladi. Predmetlar sodda ko'rinishda bo'lib, natyurmort foniga uncha ochiq rangli bo'lmanan mato qo'yiladi. Keyingi mashg'u-lotlarda natyurmortlar asta-sekin murakkablashib boradi.

## **2-mavzu. Sodda ko'rinishdan iborat bitta uy-ro'zg'or va gipsli ikkita geometrik shakllar va matodan tashkil topgan natyurmort (griyzal<sup>1</sup>)**

Suv bo'yoqda ishlanadi.

Suv bo'yoqda natyurmort ishslash bosqichlari:

1. Natyurmortning kompozitsion yechimi.
2. Natyurmort rasmini qurish.
3. Rang bilan ishslash.

### **1. Natyurmortning kompozitsion yechimi**

Ishni avvalo rasmning kompozitsion yechimidan boshlash kerak. Qog'oz betiga chizilayotgan buyumlarni joylashtirish ustida o'ylash zarur. «Kompozitsiya» so'zi lotincha so'z bo'lib, Coposittio (tuzish) yoki italyancha Componier — qurish, tuzish ma'nolarini anglatadi. Kompozitsiya keng ma'noda bo'lib (bo'laklarni birlashtirish, ularni tartibga keltirish va h. k.), umumiy ma'nosi bo'laklar birligi, butunligi demakdir.

Rasm kompozitsiyasini to'g'ri hal qilishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- 1) natyurmortni tekislikda shunday joylashtirish kerak-ki, unda rasm juda yirik yoki mayda bo'lib qolmasligi lozim;
- 2) tekislik yuzasida tasvir ikki yoki uchga bo'linib ketmasligi kerak;
- 3) tasvir fragment bo'lib qolmasligi lozim;
- 4) kompozitsiyani shunday joylashtirish kerak, uning biror qismini qo'shish va olish imkoniyati qolmasligi shart;
- 5) kompozitsions formatni topish zarur.

<sup>1</sup> **Grizayl** — (fransuzcha *grizaille*, griz — kulrang) kulrang yordamida bir rangning har xil tuslari orqali ishlangan rangtasvir. Grizayl ishslashda jigarrang, to'q zangori kabi bo'yoqlarning har xil tuslaridan ham foydalaniladi.

Vertikal yoki gorizontal postanovkada topilgan nuqtaga ko'ra chizmani qog'oz betiga joylashtirishning usullaridan biri «Darcha» usulidir. Bir varaq qog'ozni olib, uni o'rta qismida to'rtburchak shaklida «Darcha» ochiladi. Uning shakli rasmga mo'ljallangan (formatimizga) qog'ozimizga o'xshash bo'lishi kerak. Shu darcha teshik orqali natyurmortga qaraymiz. «Darcha» da ko'rigan «kadr» kompozitsiyani qog'ozga tushiramiz.

Yana bir usul qalamda kichik nabroskalar<sup>1</sup>, eskitilar qilinadi, u ham formatga asoslangan bo'lishi kerak. Kompozitsiya topilgandan keyin ish eskitiga qarab katta qog'ozga ko'zda chamalab chiziladi va naturani yaxlitlik holatini yo'qtmasdan ko'chirishdan boshlanadi. Ishning kompozitsion yechimi topilgandan keyin tasvirni qurish boshlanadi.

## 2. Tasvirni qurish

Kompozitsiya topilgandan keyin tasvir qalamda yengil qilib chizib olinadi, qalamni bosmasdan chiziqlar bilan jismlarning formasi, o'lchami va xarakterlari topiladi. Katta bo'laklar ichida maydalari ham asta-sekin ishlanib va o'z joylarini topishlari umumiyl tekislikda ajralib qolmasligi darkor. Ularning soya-yorug'i chegaralari, tushayotgan soyalari va yaltiroq joylari aniqlanadi. Chizma o'rta yumshoq qalamda qattiq bosmasdan chiziladi. Iloji boricha o'chirg'ich ishlatmaslik kerak. Chiziq aniq bo'lishi kerak, agar buyumlarda naqsh bo'lsa ularni formatga aniq chiziladi. Chizma qancha aniq va batafsil bo'lsa rangda ishlash oson bo'ladi.

## 3. Rang bilan ishlash

Natyurmortni greyzal texnikasida suv bo'yodda ishlashda qora rang ishlatiladi. Vazifaning maqsadi:

— bitta rangda shakllarning soya yorug'ini bera olish, ularning konstruksiyalarini ajratish;

— ko'za, shar, kub va shu kabi geometrik shakllardan natyurmort qo'yiladi. Natyurmort foni esa devorning o'zi yoki kulrang matoga tortiladi. Bu shakllarni soya yorug'i aniq bo'lishi uchun uni sun'iy yoritgich — safit bilan yoritiladi. Bu vazifaning o'zgachaligi shundaki, bunda chizmatasvirdan rangtasvirga o'tiladi. Vazifa o'ta oddiy ko'rinsa ham unga e'tibor bilan qarash kerak.

Qo'yilgan naturani yozishdan oldin konstruktiv tuzilishi va shakli bilan chuqurroq tanishib, tahlil qilib ish boshlash kerak. Natura sur'at tekisligi yuzasida kompozitsion joylashtirilib, uning soya-yorug'lik holati va greyzalda tonni ham tahlil qilib ish olib borilishi natura shakli (forma)ni aniqlashni osonlashtiradi. Shu bilan bir vaqtida har xil buyumlarning shaklini

<sup>1</sup> Nabroska — xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajariladigan chiziqli tasvir.

berish, ularning har xil materialdan formalarini aniqlash va ko‘pdan ko‘p reflekslarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu masalalarni yechishda, bo‘yoqni aralashtirganda kerakli tonni aniq topib rasmga ishlatish kerak. Soya-yorug‘likning geometrik modellarning chetiga tushishiga e’tibor berish kerak. Ularning yoritilgan joylari va soyalar har xil bo‘ladi. Yorug‘ joylar tomoshabinga yana ham yorug‘ ko‘rinadi. Soya bilan chegara joylarida yuzadagi soyalar juda ham qora bo‘lmaydi, chunki oq gipsdan ko‘p yorug‘lik qaytariladi va soyalarda tiniqlik (prozrachniy) bo‘ladi.

Ishning boshida buyumlarni umumiylar yaxlit shaklini topish kerak, maydalashish kerak emas. Ishda kompozitsion va umumiylar yaxlitlik topilgach mayda bo‘laklarni ishlashga, ya’ni umumiylardan bo‘laklarni aniqlashga o‘tiladi. Qachonki bo‘laklarni aniqlab ishlangach, yana ishni yaxlitligiga qaraladi.

Bo‘yashda yuzanining yorug‘lik nisbatiga qaraladi. Ishning davomida naturaning eng yorug‘ va eng to‘q (qora) joyiga e’tibor berish kerak. Naturaning eng yorug‘ joyi — «blik» deyiladi. Bu yog‘du taratib turadigan nuqta bo‘yalmaydi, toza qog‘ozligicha qoldiriladi. Yorug‘ yuzadan astasekin soyaga o‘tiladi, soyaga o‘tish chegarasi naturadagi eng kam yoritiladigan joy hisoblanadi. Bu joy yarim soya deb ataladi. Ishning tugatilishida shuni e’tiborga olish kerakki, hamma mayda bo‘laklar bir yaxlitlik hosil qilsin. Soya yuzadagi «refleks» bilan tugaydi. «Refleks»da yuzaga atrofidagi yoritilgan buyumlardan shu’la tushib turadi. Har qanday «Refleks» soya joyda bo‘lganligi sababli yorug‘ yuzaga nisbatan rang jihatdan to‘qroq bo‘ladi. «Refleks»larni ishlashda juda ehtiyyot bo‘lish kerak. Mazoklar qo‘yayotganda ular yorug‘ bo‘lib qolmasligiga, soyalar tonidan chiqib ketmasligiga va buyumlarning fazoviy joylashuviga e’tibor berish kerak (15-rasm).

### **3-mavzu. Qotirilgan yovvoyi qushlar yoki parrandalar ishtirokida savatli bir necha tuxum va uchta rangli matolar ishtirokida natyurmort**

Suv bo‘yoqda ishlanadi:

- natyurmortni rangda yozish haqida tushuncha (ma’ruza);
  - ko‘rgazma quroli — kollej fani rangli natyurmortlar.
- Amaliy mashg‘ulotlarda natyurmort ishslash bosqichi:
- natyurmortning kompozitsion yechimi;
  - natyurmort rasmini qurish;
  - rangda ishslash.

#### **1. Natyurmortni joylashtirish**

Uzoq vaqt ishlanadigan natyurmortni boshlashdan avval alohida kichik etyudlar, nabroskalar qilinadi. Bu nabroskalarda natyurmortning kom-

pozitsion joylashtirish sxemasi aniqlanadi. Qog'oz formatda ishlanadigan predmetlarning hajmi va ularning fazoviy joylanishi topiladi. Eng avvalo natyurmortni qaysi nuqtadan ishlash aniqlanadi. Natyurmortlar asosan ular uchun mo'ljallangan stollarga qo'yiladi (18-rasm). Shunday joy topish kerakki, natyurmort u yerdan qiziq ko'rinsin. Eng yaxshi ko'rish nuqtasi stol yuzidan ancha baland bo'lsa yaxshi, chunki bu yerdagi predmetlarning fazoviy joylanishlari yaxshi ko'rindi. Agar predmetlar fragment bo'lib ko'rinsa, u joyda ishlamaslik kerak. Qalamda chizilgan chizmadan keyin uning ustiga bir necha rangli eskizlar qilish kerak. Undan maqsad natyurmortning rangidagi holatini topish. Topilgan variantga qarab ish boshlash mumkin.

## 2. Buyumlarning shaklini chizish

Buyumlarning shaklini chizish rangtasvir mashg'ulotlarida asosiy o'rinni egallaydi. Qog'oz yuzasiga qalamni bosmasdan chiziq bilan natyurmortning hajmi belgilanadi, keyin buyumlarning shakli va ularning fazoviy joylanishi aniqlanadi. Qotirligan qush yoki parrandaning va boshqa buyumlarning soya yorug'ining chegarasi, tushayotgan soyasining chizmasi va «blik»lari aniq qilib chiziladi. Ba'zida ishlanadigan qog'oz yuzasini buzmaslik uchun natyurmortni boshqa qog'ozga chizib, keyin uni ko'chirish mumkin. Chizmatasvir qancha aniq chizilgan bo'lsa, ish shuncha yaxshi davom etadi.

## 3. Rangda ishslash

Qo'l tekkizilganda yoki o'chirg'ich bilan ishlangandagi yog'larni ketkazish uchun qog'oz yuzasi suv bilan yuviladi. Agar shunday qilinmasa ranglar oqib ketadi. Oldingi darslarda natyurmortni bitta rangda ishslash o'rganilgan edi, endi natyurmortni rangli xususiyatini berishga e'tibor qaratiladi. Rangtasvida ochiq ranglar va primitiv bo'yashdan qochish uchun, bo'yoqlar soni qisqartiriladi. Boshlash uchun uchta asosiy ranglar olinadi: qizil, ko'k va sariq. Qizil ranglardan — angliyskiy krasniy, sariq rangdan — oxra svetlaya, ko'k rangdan — kobalt siniy svetliy. Bu ranglardan xohlagan ranglarni chiqarish mumkin. Jarangdor (yarkiy) ranglarning — kraplak, kadmiy, jyoltiy kobaltlarning yo'qligi tasvirni bir gammada bo'lishini saqlaydi.

Bu esa o'z navbatida, palitrada ranglarni aralashtirish natijasida kerakli rang topishni o'rgatadi. Bundan tashqari, bu mashqlar talabalarga ola-bula ranglarni emas, bir-biriga garmonik bog'lanishni tasvirda o'rgatadi.

Rang buyumlarni bir-biridan ajratishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa ularning tabiatda uchrab turadigan har xil rangdagi xususiyatlari (parrandalar rang-barangligi, shisha buyumlar) tasvirning

konstruktiv holatlarini soya-yorug'ni o'ziga xosligi bilan rangtasvirda yozishda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Postanovkada qo'yilgan parranda har xil rangli, jigarrang savat va bir necha tuxum oq, matolar to'q rangda va kulrangda bo'lishi mumkin. Vazifaning qiyinligi shundaki, postanovka kontrast buyumlar: qora va och, matoviy va yaltiroq. Bu buyumlar ko'zimizga shunday ko'rinaladi, oq narsalar oppoq, to'q buyumlar qoraday. Ammo, aslida unday emas. Oq narsaning soya tomoni yorug' tomonga qaraganda to'qroq bo'ladi. Shuning uchun postanovkadagi tu-xumning soya tomoni to'q bo'ladi.

Kulrang mato fonda bo'lib u buyumlarni, ranglarni va soya-yorug'larni bir-biriga bo'lgan munosabatini aniq-ravshan qilib beradi. Shakllarning ichidagi o'z ranglari ularning xarakteriga va formasiga qarab yorug' kuchini o'zgartiradi, o'zining har tomonida har xil kuchdagi yorug'liklarni qabul qiladi. Soya tomonlari esa reflekslar bilan to'ldiriladi, shu bilan bir qatorda ularning yorug'lik qaytarishlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Buyumlarning formalari va soya-yorug'lik munosabatlarini hisobga olgan holda, ularning fazoviy joylanishlarini butun guruhdagi buyumlarning fon bilan bog'liqligi va tushayotgan soyalarini natyurmortda aniqlash kerak. «Katta yorug'lik», «katta forma», «katta soya» tushunchalari shakllarning aniq bir holatini bildiradi va rangtasvir asarlarida umumlashtirishga hamda yaxlitlikka e'tibor berishni o'rgatadi (17, 19-rasmlar).

#### **4-mavzu. Tasviri murakkab shakldagi qumg'on yoki xum, patir, choynak-piyolalar va issiq-sovuq rangli matolar, so'zana ishtirokidagi milliy natyurmot**

Suv bo'yoqda ishlanadi:

- a) natyurmortni rangda yozishni tushuntirish;
- b) ko'rgazma qurollari kollej usuli fondidan kontrast rangli natyurmortlar;
- c) amaliy mashg'ulot.

Amaliy mashg'ulotlarda natyurmort ishslash bosqichi:

1. Natyurmortning kompozitsion yechimini topish.
2. Natyurmort rasmini ko'rish.
3. Rangda ishslash.

Bizni qurshab turgan hayotimiz xilma-xil taqqoslikdadir. Rangi o'chgan, rangsiz, zo'rg'a ko'rinaliganlar yorqin ranglarni kuchaytiradi, ular bir-biriga qarama-qarshi kontrast<sup>1</sup> ranglardan iboratdir.

<sup>1</sup> Kontrast — qarama-qarshilik, zidma-zidlik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi. Yashil rangning yonida qizil rang yanada jozibali, chiroyliroq ko'rinati va hokazo.

Natyurmortdag'i patir, choynak ranglari bir-biriga yaqin bo'lib, lekin, ko'za yashil, fondagi mato esa qizil rangda, natyurmort tagida so'zana bo'lishi mumkin. Bu ikki rang bir-biriga kontrast bo'lsa ham ulardagi yorug'lik kuchi bir xil. Ishning asosiy maqsadi bu ranglarning xarakteristikasi, yorug' tomonlarini va soyalarini aniqlash.

Shakllarni ishlayotganda ularning soyalariga jiddiy e'tibor berish kerak. Agar diqqat bilan qaralsa, ko'zaning umumiy yashil rangi oz bo'lsada kul rang va issiq tomonga o'zgargan. Bu qizil matoning ta'sirida qizil rang yashil rang bilan aralashishi ikki rang qo'shilishi asosida qo'shimcha rang hosil qiladi. Shunday qilib, ko'za tagi ozgina bo'lsa ham qizil rang bo'ladi. Bu holatlarni choynak, piyola va mevalarda ko'rishimiz mumkin. Kontrast nafaqat qo'shimcha ranglar orqaligina emas, ularni issiq-sovuqlik aloqalari orqali olish mumkin. Natyurmort tuzishda shuni e'tiborga olish kerakki, bиринчи гурӯҳдаги ranglar (issiq va sovuq) asosiy hisoblanib, undagi buyumlarning fazoviy joylashuvi ikkinchi guruhdagi qo'shimcha bilan birga yaxlitlik hosil qilsin.

Ishning boshida buyumlarning umumiy yaxlit shakllarini topish kerak, so'ng mayda bo'laklarni ishlashga umumiylidkan bo'laklarni aniqlashga o'tiladi. Qachonki bo'laklar aniqlanib ishlangach, yana ishning yaxlitligiga qaraladi. Ishning oxirgi natijasi shunday bo'lishi kerakki, hamma mayda bo'laklar bir yaxlitlik hosil qilsin. Mayda bo'laklarning birortasi yaxlitlikdan chiqib ketmasligi kerak (25, 26, 27-rasmlar).

## 1-BOSQICH, II-SEMESTR

**1-mavzu. Moy bo'yoqning tarixiy xususiyatlari va texnologik jihatlari hamda suyuq qorishmalar (razbavitel) yordamida ulardan foydalanish. Tortilgan matoni yog'och yelimi, jelatin, tuxum sarig'i yoki asalning tegishli foizlaridan kelib chiqib ashyolash va oq rang tempera bilan mato yuzasini bo'yash**

Moy bo'yoqda ishlash XV asrda boshlangan. Hozirgi zamonda rangtasvirda eng ko'p ishlatiladigan bo'yoqlardan biridir. Moy bo'yoqning tarkibida unga o'xshab maydalangan rangli poroshoklar va ularni bog'lovchi moy (ko'pincha Innoye) bo'ladi. Shuning uchun uning nomi moy bo'yoq deyiladi. Moy bo'yoqlar qalayli tyubiklarda sotiladi. Unga qiyin bo'limgan rangtasvir asarlar yaratish uchun quyidagi moy bo'yoqlar kerak bo'ladi:

1. Belila sinkovie (oq moy bo'yoq), u juda ko'p ishlatiladi, sekin quriydi. Uni boshqa moy bo'yoqlarga qaraganda uch barobar ko'p sotib olish kerak bo'ladi.

2. Kadmiy jeltiy (sariq rang), u har xil bo'ladi. Limonno-jyolitiydan to'q sariqgacha. Bitta «Kadmiy jyolitiy sredniy» bo'yog'ini olsa bo'ladi. U sekin quriydi.

3. Oxra jyoltaya (svetlaya) boshqa bo'yoqlar bilan mustahkam qo'shiladi.
4. Kadmiy krasniy — juda ham yorqin, boshqa bo'yoqlar bilan qo'shilishganda mustahkam.
5. Kraplak krasniy — yorqin, bo'yاليشда kuchli, tiniq, boshqa bo'yoqlar (yashil ranglardan tashqari) bilan yaxshi qo'shiladi.
6. Oxra krasnaya — mustahkam, boshqa bo'yoqlar bilan qo'shilishda, uni «angliyskaya krasnaya» bilan almashtirib ishlatish mumkin.
7. Izumrudnaya zelen — yashil ranglar orasida eng yaxshisi, yorqin tiniq, boshqa bo'yoqlar bilan qo'shilishda mustahkam. Tez qotadi. Faqat kraplak bilan qo'shilmaydi.
8. Okis xroma — uncha yorqin bo'lмаган yashil rang, boshqa ranglar bilan qo'shishda mustahkam.
9. Kobalt siniy — yorqin ko'k rang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam, sariq bo'yoq (kadmiy jyoltiy) bilan qo'shilmaydi.
10. Ultramarin — yorqin ko'k rang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam, ba'zi paytlarda qorayib qolishi mumkin, unda rangni oldingi holatiga keltirish uchun rasm ustiga lak yoki moy suriladi.
11. Umbra naturalnaya — och jigarrang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam, tiniq.
12. Umbra jjyonnaya — to'q jigarrang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam, uning o'rнига «mars korichnevy»ni ishlatish mumkin.
13. Siyena jjyonnaya — yorqin qizg'ish jigarrang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam.
14. Kost jjyonnaya — qora rang, boshqa ranglar bilan qo'shilishda mustahkam.

Bu ranglarga qo'shimcha: «stronsianovaya jyoltaya, «volkonskoit» va kobalt fioletoviy sotib olish mumkin. Moy bo'yoqlarni suyultirish uchun quyidagi suyuq qorishmalar ishlatiladi:

1. Razbavitel №1 — tozalangan neft, rangsiz suyuqlik, tez o'chib ketadi. Agar bo'yoqqa ko'p qo'shilsa ish qorayib qolishi mumkin.
2. Razbavitel №2 — bir xil hajmda qo'shilgan terpentipoviy skipidar va razbavitel №1.
3. Razbavitel №3 — terpentinoviy skipidar.

Bu suyuq qorishmalar bo'yoqlar bilan ishlanganda ozginadan qo'shiladi, chunki moy bo'yoqni o'zi moy va razbavitel qo'shilgan bo'ladi.

## LAKLAR

Moy bo'yoqlarni aralashtirish uchun ba'zida lak ishlatiladi, laklar: «masticniy», «domarniy» va «kopaloviy» turlari bo'ladi. Lak, asosan, moy bo'yoqning tezroq qotishiga, uning qorayib qolmasligi uchun qo'shiladi. Suyuq qorishmalarining yana bir turi «uchlik» yoki «ikkilik»

deyiladi, bular «razbavitel», lak va moydan iborat suyuq qorishmalardir. Eng yaxshi suyuq qorishmalardan «razbavitel №2» hisoblanadi. Laklar dan rangtasvirda ishlatish uchun «mastichniy» hisoblanadi.

## CHO'TKALAR

Rangtasvirda moy bo'yodda ishlash uchun «shchetinnie, yapaloq», har xil hajmdagi cho'tkalar, nozik joylarini ishlash uchun «kolonok» cho'tkalar ishlatiladi. Cho'tkalar sotib olinganda ularning tuklari bir tekis bo'lishi, uning uchlari to'g'ri bo'lib, har tomonga chiqib ketmaganligiga e'tibor berish kerak. Ish tugallangandan so'ng cho'tkalarni albatta iliq suvdasovun bilan yuvib, quritib qo'yish kerak, ularning uchlari bir tekisda bo'lishi uchun qog'ozga o'rab, bankaga tuklarni tepaga qilib solib qo'yish kerak.

## PALITRA

Moy bo'yoqlar siqib qo'yiladigan va ularni aralashtirish uchun ishlatiladigan  $30 \times 35$  sm hajmdagi fanneradan yoki oq orgsteklodon qilingan tekislik. Palitrani doimo ozoda tutish kerak, har ishdan keyin uni yaxshilab tozalab, latta bilan artib qo'yish kerak. Bo'yoqlarni palitradada tozalash uchun maxsus pichoqlar — «mastixin» yoki shpatel ishlatiladi. Moy bo'yoq, cho'tkalar, razbavitel va palitrani olib yurish uchun maxsus quti — «etyudnik» kerak. Ochiq havoda etyud yozish qulay bo'lgani uchun bu quti «etyudnik» deb atalgan. «Xolst» — moy bo'yoqqa ishlatiladigan mato. Bu mato yuzasi ozgina g'adir-budir bo'lib, moy bo'yodda ishlash uchun eng yaxshi yuza hisoblanadi. U «podramnik» — taxta ramkada tortilib, yuzasida ishlanadi. Ramka — taxtaning burchaklari mato tortilganda qiyshayib qolmasligi uchun mustahkam bo'lishi kerak. Matoni tortish uchun mayda mixlar bilan podramnikning avvalo o'rtasi qotiriladi, keyin ketma-ket podramnikning chetlariga qoqib boriladi. Mato yirtilib ketmasligi va bir xil tortilishi uchun uni faqat qo'l bilan tortish kerak. Xolstni yozish, tayyorlash uchun asosiy vazifa uni ashyolashdir. Ashyolash uchun quyidagi foizda ashyo (grunt) tayyorlanadi.

1. Kley (yog'och yelimi yoki jelatin) — 10—15 g.
2. Suv — 200 g (1 stakan).
3. Siki poroshogi yoki bo'r — 100 g. (1—2 stakan).

Yelim tayyorlash uchun 10—15 g yog'och yelimi yoki jelatin bir sutka davomida sovuq suvgaga ivitib qo'yiladi. Keyin u qaynatilib eritiladi. Buning uchun biri katta, ikkinchisi kichikroq ikkita banka olinadi, kichkinasi katta bankaning ichiga sig'ish kerak. Kichkinasiga yelim, kattasiga esa suv quyilib, shu suvda qaynatib eritiladi. Yelim erishi bilan u qaynab

ketmasdan suvdan olinadi. Agar yelimni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olovga qo‘ysak, u kuyib ketadi. Yelim sovugandan keyin katta cho‘tka (fleys) olib matoni ustiga suriladi. Ortiqcha yelim mato yuzasidan pichoq bilan surib olinadi. Keyin xolstni yaxshilab quritish kerak. Endi grunt surtishga kirishiladi. Tayyorlangan yelimga yuqorida ko‘rsatilgan foizda bo‘r qo‘shiladi, so‘ng yaxshilab aralashтирilади va mato yuzasiga katta cho‘tka bilan bo‘yab chiqiladi. Yaxshi qurigandan so‘ng mayda qum qog‘oz bilan tozalanadi va yana bir marotaba tayyor ashyo bilan surtib chiqiladi. Grunt<sup>1</sup> matoga moy va bo‘yoqlar singib ketishidan saqlaydi. Bo‘yoqlarni matoga yaxshilab yopishib olishiga grunt yordam beradi hamda bo‘yoqlarni tozaligini va yorqinligini saqlaydi. Grunt yana bir necha xilda bo‘ladi: «polumaslenniy grunt» — yarim moyli, «emulsionniy grunt», «moyli grunt». Matodan tashqari moy bo‘yoqli rangtasvirda etyudlar ishlash uchun qalin karton olib, uni ham yuqorida aytib o‘tilganday ashylab ishlash mumkin.

## **2-mavzu. Kumush yoki bronza rangli samovar yoki choynak, piyola, non va ikki xil matolar yig‘indisidan iborat oq-qora (grizayl) natyurmort**

Suv bo‘yoqdagiday moy bo‘yoqda ham chizmatasvir asosiy rolni bajaradi. Kompozitsion joylashtirish topilgandan keyin kichkina etyudlarni naturadan yozgandan so‘ng matoga chizishni boshlash kerak. Rangtasvirda chizmani har xil materiallarda chizish mumkin, chizma ko‘mir, grafit, akvarel va niyoyat cho‘tka bilan moybo‘yoqni razbavitelga aralashтирilган holda matoda chizishni grunt yuzasini buzmaslik uchun ehtiyyot bo‘lib boshlash kerak. O‘quv vazifalarini bajarish uchun eng yaxshi ashyo chizma ko‘mirdir. Ko‘mir bilan ishlaganda xohlagancha o‘chirib tuzatish mumkin.

Natyurmort oq-qora usulida bajariladi. Buning uchun oq va to‘q moy bo‘yoqlardan qora yoki to‘q jigarrang ishlatiladi. Agar o‘quvchi chizishni yaxshi bilsa natyurmort chizmasini cho‘tka bilan ishlasa bo‘ladi. Cho‘tka bilan chizishni yaxshi tomoni shuki, u gruntni yuzasini yaxshi saqlab qoladi. Vazifaning maqsadi bitta rang bilan har xil rangda bo‘yalgan buyumlar shaklini berishdir. Bir tomonda shakllar rangi buyumlarning bir-biridan ajratsa ham, bitta rangda ularni ajratib ishslash ancha qiyinchilik tug‘diradi. Yorug‘lik qiymatini, qaysi shakllar eng to‘q, qaysi joyda eng ko‘p yorug‘lik uning qiymati, to‘q predmetlarning yorug‘liklarning bir-biriga bo‘lgan munosabati qaysisida ko‘proq, qaysi birida kamroq yorug‘lik yoritilayotgani va och rangdagи buyumlarning soyalari, buyumning o‘z soyasi va undan tushayotgan soyasini ish boshlashda yaxshilab o‘rganib chiqish kerak.

<sup>1</sup> **Grunt** — tasviriy san‘at, mato (xolst) yoki devorlarga rangli tasvir, dekorativ bezak ishslashdan oldin qoplanadigan murakkab aralashma. Grunt — alifmoy, duradgorlik yelimi yoki suv emulsiyali bo‘lishi mumkin.

Natyurmortdag'i buyumlarning mayda shakllarini ishlashda asosiy diqqatni ularni haqqoniy bo'lishiga qaratish kerak. Amaliy o'qitish davomida: «katta yorug'lik», «katta shakl», «katta soya» tushunchalariga e'tibor berish kerak. Bular shakllarning umumiyligi holatini anglatadi. Uning ma'nosi rangtasvir asrinig umumiyligi holatini ko'ra bilishdir. Bo'yoq bilan ish boshlashda avvalo hamma soya joylarni va tushayotgan soyalarni tiniq rang bilan yozib chiqish kerak, yorug' joylari bundan mustasno. Shundan keyin natyurmortning orqa foni va yarim soyalar (poluton) ishlanadi, foni, soya va yorug'liklarning munosabatlari aniqlanadi. Bu munosabatlarni saqlangan holda soya va yorug'lar batatsil ishlab chiqiladi. Reflekslarni ishlashda mazoklar qo'yilayotgan paytda ularning yorug'ligi umumiyligi tonlardan chiqib ketmasligi kerak.

Ishning umumiyligi holatida natyurmortning eng yorug' tushgan joyini va eng to'q joyini, soya yorug'ini ishlab chiqib, mayda bo'laklarni shu ikki nuqtaga bo'ysindirish kerak. Ishning oxirida hamma mayda bo'lakchalar bir yaxlitlik hosil qilsin. Yaxlitlikni buzmaslik, undan chiqib ketmaslik kerak (20-rasm).

### **3-mavzu. Ko'za, so'zana, anor, olma yaxlit mato fondagi milliy natyurmort**

Ish boshlashdan oldin natyurmortni o'rganib chiqib, undan umumiyligi taassurot olish kerak. Birinchi taassurotni eslab qolish keyingi ish davomida kichik shakllarni ishlash uchun ularning umumiyligini, etyudlarda guruhlarni tasvirlashga yordam beradi. Kichik etyudlarning asosiy vazifasi rang bilan buyumlarni shakllanishini berishdir. Moy bo'yoqda ish boshlashda eng avvalo qisqa vaqt, 1—2 soat ichida etyud yozishdir. Bularni bir seansda ishlash kerak bo'ladi. Qisqa muddatli etyudlar talabalardan jiddiylikni talab qiladi va vazifani bajarish uchun juda katta foyda beradi. Shu bilan birga talabalarning rang sezish qobiliyatini oshiradi, naturani butun ko'rishni va undagi asosiy shakllarni ko'rishni o'rgatadi. Bu natyurmort ishlashni asosiy vazifasi. Ranglarning soyasini topish, ularning yoritilgan tomonlarini har xil yorug'likda bajarish buyumlarning shaklini rangda berishda qiyinchilik tug'diradi.

Bir necha kichik hajmdagi etyudlarni bajarib bo'lgandan so'ng, uzoq muddatli natyurmortlar ishlashga o'tiladi. Natyurmortni kompozitsion joylashtirib bo'lgandan keyin uni qurish boshlanadi. Chizib bo'lgandan so'ng har bir buyum alohida ishlab chiqiladi.

Ko'zaning to'q rangi neytral fondagi matoda issiq ranglarda o'zgaradi va issiq rangda anor va ko'zadan o'zining to'q rangi bilan ajralib turadi. Shu farqlarni olib bo'lgandan keyin qaysi buyumlar och, qaysinisi to'qligini, keyin ularning rangidagi munosabatlari olinadi. Natyurmortning asosiy

buyumlari va fon issiq ranglardir. Faqat bu issiq ranglar asosan yorug' joylarida bir-biridan farq qiladi. Eng to'q bu ko'za bo'lib, eng och bu fondagi matodir. Bu qarama-qarshiliklar qo'yilgan vazifani yechishga yordam beradi (28-rasm).

#### **4-mavzu. Antik davri alloma yoki qahramonlaridan birining gipsli portreti, uni yonida buyumlar to'ldiruvchi ikki xil mavzuli buyumlar va matolar ishtirokidagi natyurmort**

Bu natyurmortlarga yon tomondan tushayotgan yorug'lik berib, natyurmort orqasidagi fon rangli mato (oranjeviy, och-yashil, qizg'ish) bo'lishi kerak. Fondagi natyurmort tagidagi matolarning rangi oq gips haykalga ta'siri katta bo'ladi. Orqa fondagi sovuq (ko'k va yashil) ranglar unga yengil issiq ton beradi va issiq fon qizg'ishroq bo'lsa u oq jinsda sovuqroq ko'rindi. Bu holatda gipsning yorug'i tushib turgan tomon kontrast ko'rindi, soya tomonlarida esa fondan tushayotgan reflekslar bo'ladi. Refleks — bu tekislikdan qaytarilgan yorug'likning buyumning soya tomoniga yoritilgani bo'ladi. Reflekslar asosan ochiq havoda ostobli kunda bo'ladi. Xonada esa ostob chiqib turgan kunlarda har xil rangli reflekslarni ko'rish mumkin. Ranglarni bir-biriga ta'siri rangtasvirda juda muhimdir. Har qanday rang yonidagi rangning ta'sirida o'z tusini o'zgartiradi. Misol uchun, yashil olma qizil fonda yanada ham yashilroq, ochroq ko'rindi. Agar yashil rangga qo'ysak uncha u ko'rinnay ketadi. Limon, piyojni to'q fonga qo'ysak ular och bo'lib ko'rindi, och fonda esa ancha to'q ko'rindi.

Buyumlarning shakllarini berishda cho'tka yurgizishning formasi va qalinligi juda katta rol o'ynaydi. Aylanali shakldagi olma, choynak, ko'za, piyozlar o'ziga xos mazoklar qo'yishni talab qiladi. Non, qog'oz, stol usti va fon boshqa xildagi mazoklar qo'yishni talab qiladi. Ranglar munosabatini to'g'ri olishga harakat qilgan holda buyumlar shakllarini saqlab qolish va ularning yuzalarini mazoklarda ranglarini to'g'ri berishga harakat qilish kerak.

Shu postanovka asosida uning (foni) orqa tekislikni yechish va uning fazoviy joylashishiga e'tiborni qaratamiz. Fon va stolning tekisligi postanovkaning asosiy qismidan biridir. Fon bu fazoviy joylashuv va havodir, agar peyzaj yozishda osmon qancha kerak bo'lsa, natyurmort yozishda ham shuncha kerak. Shu bilan birga fon postanovkaning kompozitsion qurilishining ajralmas qismidir. Fon buyumlarning yoritilishiga qarab o'ziga har xil ranglarni oladi, ularning ta'sirida natyurmort atrofdagi ranglarga qarab yo issiq yoki sovuq bo'lishi mumkin. Shuning uchun fanni bir xil rangda bo'yash mumkin emas, agar u qancha tekis bo'yalsa, qolgan yaxshi yozilgan joylarni buzib qo'yishga olib keladi. Aslini olib

qaraganda, fon bir xil rangday ko‘rinadi, lekin qancha ko‘p mashq qilgan sari ranglarning boyligini ko‘ra boshlaysiz. Hozircha qo‘ldan kelgancha mazoklarni har xil qo‘yish kerak. Mazoklarni butun fon bo‘yicha tortmaslik, silliq qilib bo‘yamaslik, mazoklarni kerakli tomonga qarab qo‘yish kerak. Fon uchun bo‘yoqlarni palitrada rosa aralashtirish kerak emas, bu qorishmada ranglar qandaydir miqdorda qo‘sib turilishi kerak, shunday holatda mazoklarni etyudga qo‘yish kerak. Bunday ishlash postanovkada foning fazoviy taassurotini qoldiradi. Fon bulardan ancha oraliqda turishligini hamma vaqt yodda tutish kerak, oldingi plandagi buyum va stolning chekka qirrasi orqali ko‘rish kerak. Stolning yuzasi ham xuddi fon kabi asosiy rolni o‘ynaydi. U postanovkaning umumiyligi rangli kompozitsiya fazoviy joylashishini ko‘rishga yordam beradi. Buyumlarni stol ustiga tushayotgan soyalariga asosiy e’tiborni qaratish kerak, ular yorug‘ tomonlarda to‘q qora bo‘lmasdan o‘z tusiga egadir.

Biz fon va stol yuzasiga e’tibor bersak, undan albatta fazoviy joylashuv haqida o‘ylaymiz. Buyumlar orasidagi masofalar ular ranglarning yorqinligiga ta’sir qiladi. Ular soya yorug‘lik kontrastligini yumshatadi. Bularni anglash uchun bir paytda stolning oldi chetiga qarash, buyumlarning oldingi plandagi va uzoqlashayotgan buyumlar va fonga qarash kerak bo‘ladi. Bularni o‘rganish uchun juda ko‘p mashq qilish kerak. Bular orqali natyurmortdagagi gipsli portret, undagi matolar va boshqa buyumlarning muhitini, ranglarning bir-biriga ta’sirini o‘rganamiz (29-rasm).

## 2-BOSQICH, III-SEMESTR

### **1-mavzu. Keksa odamning portreti, yelka va ko‘krak qismi yalandbosh holda kiyimi bilan**

Birinchi marotaba natura ishlashda modelga uncha ochiq rangda yoki qora to‘q rangda kiyim kiygizmaslik kerak, chunki bu ranglar odam yuzining rangidan farq qilishi lozim. Odam badani issiqroq rangda bo‘ladi. Shuning uchun naturshchik och kulrang yoki yashilroq, ko‘kroq rangda kiyangan bo‘lsa yaxshiroq bo‘ladi. Naturshchikni silliq devordan yarim metr uzoqlikda tutish kerak. Agar devor ochiqroq kulrang, ko‘kimir bo‘lsa, unda fonga hech narsa qo‘shmaslik kerak, bordi-yu, agar u qora, to‘q yoki rangli bo‘lsa, unda fon uchun bo‘z yoki to‘q bo‘laman och kulrang mato tortish kerak. Shunda odam boshi kiyimidan va fondan ajralib turadi, fon silliq rangda, kiyim esa badanga yopishib, uning shaklini ko‘rsatib turadi. Rang jihatdan esa yoritilishiga qarab ularning rangi har xil tusda bo‘ladi. Talabalari bu naturani ishlashda birinchi galda ishning kompozitsion va qoidali qurilishiga e’tibor berib, bosqichlar asosida oddiydan murakkabga, umumiyligidan maydaga o‘tish va aksincha, maydadan umumiylikka

qaytish qoidasiga rioya qilishlari kerak. Har bir talaba ishning kompozitsiyasi yoki qurilishini emas, balki uning soya yorug'lik, umumiylit holatini taxmin qilib tekshirib borishi bilan boshning haqiqiy shaklini to'g'ri tasvirlay olishi kerak. Naturani chizib bo'lgandan keyin uni bo'yashga kirishiladi. Rangda ishlash suyuq qilib akvarenga o'xshab ishlanadi. Unda naturadagi har xil ranglarni bir-biriga bo'lgan munosabatlari, ularning to'q-ochligi aniq qilib olinadi.

Bu ish ancha qurigandan so'ng naturani ishlashga kirishiladi. Bunga boshning faqat har xil murakkab holatlarini emas, balki individual (shaxsiy) psixologik xarakterini bera olish ham kiradi. Endi ranglar qalin mazoklarda ishlana boshlanadi. Ko'z, burun, og'iz, quloq va boshqa detallar kichkina cho'tkada ishlanadi, modelning mayda bo'laklarini yozish bilan birga uning yaxlitligini saqlab qolishga harakat qilinadi. Naturaning shakliga qarab tus berish tasvirning yorug'lik yuzasini belgilash yoki unga aniqlik kiritish uchun zarur, chunki soya yuzalarini tus berish yo'li bilan bekitish tasvirda chuqur hamda to'q soya beribgina qolmay, balki yumshoqlik sezgisini ham hosil qiladi. Ishning eng boshida ikki-uch rang bir-biriga bo'lgan munosabatini aniq olish kerak, shundan keyin ishni olib borish osonlashadi. Bular asosan yuz, kiyim foning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari bo'lishi kerak. Albatta bularning umumiylit munosabatlari turlicha, qay birisi qaysi rangda bo'lishi, qaysinisisov uqroq, qaysinisi issiqroq, qaysinisi to'q, qaysinisi kuchli, qaysinisi o'rtacha bo'lishi ham ahamiyatga ega. Yorug'lik va soya tomonlarni iloji boricha birdaniga olish kerak. Misol uchun, yuz va kiyimning soya joylarini hamda yorug' joylarining nisbatini soyalarga qarab olish kerak. Fonni ham shularga nisbatan olish kerak. Tananing ba'zi joylari devor foniga (siluet) to'q bo'lib ko'rinsa, boshqa joylari esa teskari och bo'lib ko'rinati. Och rangdagi kiyimlarda soya ranglari yoritilgan burmalararning rangidek burmalar aniq ko'rinati. Talabalardan modelning mayda bo'laklarini yozish bilan birga yaxlitlikni saqlash yozi layotgan boshning shaxsiy-psixologik holatini ham berish talab qilinadi (21-rasm).

## **2-mavzu. Kuz mevalari, tarvuz yonida sochilib yotgan uzum, olma, behi, nok va anorli hamda serjilo bo'lgan so'zana fonidan tashkil etilgan natyurmort**

Uzoq muddatli postanovka etyud, kompozitsion eskizlar va shunga o'xshash uzoq muddatli topshiriqlarni bajarishda talabalar «format», «ko'rish nuqtasi» (tochka zreniya), «kolorit», «ton», tekislik yuzasida tasvirlash kabi tushunchalar bilan tanishadilar. Talabalarning ko'zda eslab qolish (zritelnaya pyamat) qobiliyatlarini oshirish uchun qilinadigan mashqlar, xayoliy ish, bir maqsad bilan qilingan qisqa muddatli etyud

ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va kompozitsiya yaratishini shaklantiradi. Kompozitsion badiiy obrazlar yaratish bir usuldir. U ongli ravishda kartinani qurish, undagi predmetlarni joylashtirish, tomoshabin kartinaga qaraganda undagi fikrni oson anglab olish uchun yordam beradi. Kompozitsiya so'zi (lotincha *compositio*) — (tuzish) mayda bo'laklarni birlashtirishdir.

Natyurmort kompozitsiyasining kursi kompozitsiya ilmining va o'rGANISHNING birinchi bosqichidir. Natyurmort obrazini yaratishda biz uning tarkibidagi qismlarning mavzusi, sujeti, kompozitsiyasi, shu dastgohli rangtasvir qonunlari, ritm, kolorit bilan tanishamiz. Bularni talabalar natyurmort misolida o'rganib borishadi.

Ijodiy amaliyotda natyurmort yaratishni har xil yo'llari bor. Natyurmort bir maqsad bilan qo'yilgan postanovka, naturadan ko'rganda va naturadan yig'ilgan materiallar asosidagi eskizlardan, qoralamalardan (etyudlardan) yozilishi mumkin. Natyurmort kompozitsiyasi dasturi eskiz qilish va naturadan material yig'ishni o'z ichiga oladi. Eskiz ustida ishlash ijodiy asar yaratishda bosqichma-bosqich ishlashni o'rgatadi (22-rasm).

### **Natyurmort mavzusi**

«Mavzu» tushunchasi natyurmortda faqatgina adabiy sujet bo'libgina qolmay, keng ma'noga ega. Rassom bir mavzuni bat afsil tahlil qilmasdan uning professional maqsadlarini yechib beradi. Rangtasvirchi tomoshabinlarga asardagi predmetlarning ichki estetik bog'lanishlarini ko'rsatadi. Sujetda mavzuning plastik va ma'no jihatdan bog'lanishi masshtab, ton, rang hamda kompozitsion markaz bo'ladi.

Kuz mavsumida qo'yilgan natyurmortda yuqorida aytib o'tilgan tasviriy san'atda ishlataliladigan talablar qo'yiladi. Natyurmort yozish jarayonida uning kompozitsion markazini topishga katta e'tibor beriladi.

Natyurmortning ma'nosи va klassik yechimi aniqlangandan so'ng uning asosiy tematik bo'limiga, ikkinchi darajadagi shakllarni bo'y-sundirishga harakat qilinadi. Bu asosiy bo'lim kompozitsion markaz deyiladi. Kompozitsion markaz tasviriy san'at obrazini yaratishning asosi bo'ladi. Ular asosan qandaydir ochiq rangdagi predmetlar bo'lib, yori-tilayotgan mavzuning asosiy qismidir. Natyurmordagi qolgan qismlarni o'ziga bo'ysundiradi. Kompozitsion markaz fazoviy har xil joyda bo'lishi mumkin. Ko'pincha mavzuli markaz asar yuzasining markazida yoki chetroqda, uzoqroqda bo'ladi. Agar kompozitsion markaz tomoshabindan chap tomonda bo'lsa, unda o'ng tomoni rangda yo tonda rang kontrasti bilan muvozanatni saqlash kerak bo'ladi. Kompozitsion markazni ajratishning bir necha yo'li bor. U hajm bilan ajratish, rang bilan, ton va bir guruh predmetlar natyurmort mavzusini ochib beradiganlar bo'lishi mumkin.

### **3-mavzu. O'rta yoshli odamning boshini nisbatan bir tomonga qaratgan holda qo'llari bilan yarim figurasi (qomati)**

Rangtasvirda odam portretini ishslash uchun eng avvalo postanovkaga e'tibor berish kerak. Naturani shunday joylashtirish kerakki, unda atrof-muhit, nur tushishi, naturaning xarakterini ochib berish holatlar yaqqol ko'rinishi kerak. Shunda chiroyli postanovka, shaklning aniqligi va rangi bilan qiziqib ishslashga imkoniyat tug'iladi. Rangtasvirda natyurmort ishslash bir necha qoidaga bo'linadi.

1. *Portret ishslash*. Bunda quyidagi moybo'yoqlar ishlatiladi: oxra svetlaya, angliyskiy krasniy, volkanskaya yoki okis xroma, kost ijonnaya, mars korichnevaya, umbra naturalnaya, stronsiy jyoltaya, belila.

2. *Portretni kompozitsion joylashtirish* ko'mir chizig'i bilan aniq qilib chizib olinadi. Keyin uni latta bilan artib, sal-pal ko'rindigan kontur qoldirish kerak. So'ngra kichkina kolonkoviy cho'tka olib yana naturaga qarab suyuq umbra jyonnaya yoki mars korichneviy bilan chizib chiqish kerak.

3. Mars korichneviy yoki umbra naturalniy bilan belilasiz, suyuqliksiz podmalyovka qilib chiqish kerak. Bu podmalyovkada asosiy soyalarni yozib chiqing, faqat naturaning umumiy formalari chiqsin. Eng yorug' soya joylarini suyuq qilib yopib chiqiladi, uning tagida mato ko'riniq tursin. Podmalyovka qilish paytida eng to'q joyni va boshqa soyalarning bir-biriga bo'lган munosabatlari topishga harakat qiling. Podmalyovkaga belila qo'shib ishlansa u tez qurimaydi.

4. Qurigan podmalyovka ustiga rangda ishslash boshlanadi, iloji boricha ranglarning bir-biriga bo'lган munosabati katta formalarga aniq olinadi. Matoga qalin qilib bo'yoq bermaslik kerak, bo'yoq tagidan podmalyovka ko'riniq turishi kerak, bu umumiy formalarni va soya joylarni ushlab turishga yordam beradi. Belilani ko'p ishlatish maqsadga muvofiq emas.

5. Ishingizni natura bilan tekshirib turing, noto'g'ri joylarini pichoq (mastixin) bilan tozalab tashlang. Ranglar munosabatini aniqlang. Ko'z, burun, lab, quloq kabi detallarni aniq ishlang. Har bir materiallarni rangda berib, formalarni fazoviy joylashishini aniqlang.

6. Naturaning har bo'lagining kontrastlarini umumiylikka taqqoslang, ishni natura bilan solishtiring, ranglar chegaralarini chetlarini yumshating. Ishning oxirida mazoklarni qalinroq qo'ying. Soya joylariga oldinga chiqib ketmasligi uchun mazokni kamroq qo'yish kerak (23-rasm).

## **2-BOSQICH, IV-SEMESTR**

### **1-mavzu. Keksa yoshli ayolning ro'molli portreti, yelka va ko'krak qism tasviri**

Bu topshiriqni bajarishda anche ko'proq vaqt talab qilinadi. Birinchi seansda matoda yoki kartonda chizma ko'mir yoki qalam bilan yaxshilab

natura chizib olinadi. Keyin latta bilan chizma ko'mir bo'yoq bilan qo'shilib ketmasligi uchun yengil artib chiqiladi. Yozishni soya joylardan boshlash kerak. Bo'yoqni suyuq qilib, iloji boricha belilani suyuqlik bilan kamroq ishlatish kerak. Ranglarni umumiy formaga qarab aniq topishga harakat qilish kerak. Moybo'yoqni har bir mazokni rang va tonning butun kuchida faqat bo'yoqlarni uch xilidan ortiqcha aralashtirmaslik kerak. Avvalo soyalar shaklini, yuzning asosiy rangi soch, ro'mol, kiyim va fon ranglarini aniqlash kerak. Keyin yorug' tomonlari yarim soyalarni ishlab chiqadi. Yuzning soyalarini, ro'mol va kiyim soyalaridan farq qiladi. Naturaning yorug' tushib turgan tomonlari bir xilda sovuq yoki issiq bo'lishi mumkin emas. Ma'lum paytda naturaning atrofidagi narsalar albatta qonuniy ravishda ta'sir qiladi. Yorug' tushib turgan tomonlar soyalarga qaraganda sovuqroq bo'lishi mumkin yoki aksincha, soyalar sovuqroq bo'lib, yorug' tushib turgan tomonlar issiq bo'lishi mumkin. Ikkinci seansda qilingan ishlarning to'g'riligini tekshiring. Ranglar munosabatlarini aniqlang. Naturaning mayda detallari ko'z, burun, og'iz va hokazo ishlab chiqiladi. Ko'z bilan chamalaganda, ko'zga tushmaydigan, umumlashtirib qaraganda ba'zi detallar ishlanmaydi. Ko'zga tushadigan detallarni bir-biriga taqqoslab, umumlashtirib ishlang. Agar biror joyda xato qilingan bo'lsa o'sha joy mastixin (pichoq)da olib tashlanadi va qaytadan ishlanadi. Ishning oxirida, agar kerak bo'lsa bo'yoqni qalinroq qo'yish kerak, blik yoki yorqin nur tushib turgan joylarga bo'yoqni suyuqliksiz qalin qilib kerakli rangni qo'yish kerak (26-rasm).

## **2-mavzu. Nisbatan kichik hajmdagi matoda interyerdag tik turgan qariyaning to'liq gavdasini xomaki tasvirini ishslash**

Odam qomatini ishslash boshqa rangtasvirdagi ishlardan uncha farq qilmaydi. Odam qomatini ishslashda iloji boricha naturshchikka to'q rangdagi kiyimlarni kiydirmaslik kerak, yengil och rangdagi kiyimlar badanga yopishib turib, badanning formalarini ko'rsatib turishi kerak. Naturaning holati aniqlangandan keyin plastik shaklini berib, uni atrof bilan bog'lashga kirishiladi. Rangtasvirda odam qomatini va uning bo'laklarini atrof-muhit bilan munosabati aniqlanadi. Naturaning interyerdagи predmetlari odam qomati bo'lgan rangdagi munosabatlari topiladi, Naturaning kiyimi, sochi, tananing rangi qanday ahamiyatga ega bo'lsa, uning atrofini o'rab turgan, yonida orqasidagi predmetlar, devor, eshik, deraza va hokazolarning rangi ham shunday ahamiyatga egadir. Shuning uchun qisqa muddatli yoki ko'p muddatli etyud bo'lishiga qaramasdan undagi ranglar munosabatini xolstda birdaniga olish kerak. Figura doimo kompozitsion markazda bo'lishi kerak. Asosiy kontrast yorug'lik va rang odam qomatiga qaratilishi lozim, atrofdagi va orqadagi

predmetlar kamroq yoritilsa maqsadga muvofiqdir. Atrofdagi detallarni maydalashtirib ishslash kerak emas. Ular odam qomatini ko'rishga xalaqt beradi va ishni maydalashtiradi, yaxlitlikni yo'qotadi.

Biz naturaning doimo fazodagi holatini ko'ramiz. Yoritgichning xarakteriga asoslanib har xil predmetlarning ta'sirida qurshab ko'rinishi ham muhim. Odam gavdasini atrof-muhit bilan bog'liqligini ranglarning munosabatida olish kerak bo'ladi.

### **3-mavzu. Naqshinkor, milliy kiyimdag'i yosh ayolning qo'llari bilan yarim gavdasi**

Postanovka qo'yilgandan so'ng matoning formati (o'lchami) aniqlanadi. Unga ayolning yarim qomati kompanovka<sup>1</sup> qilinadi. So'ng qalam yoki chizma ko'mirda maydalashtirmsandan chizib chiqiladi, proporsiyasi aniq topiladi, albatta chizma aniq bo'lishi kerak. Chizmadan so'ng rangda ishslash boshlanadi. Naturaning rangdagi holati aniqlanadi. Naturaning kiyimlari o'ta kontrast rangda bo'lgani hisobga olinadi. Agar ikki-uch ranglar munosabati aniq olnsa, unda shularga qarab ish olib borish oson bo'ladi. Bular jumlasiga kiyim, yuz, fon ham kiradi. Iloji boricha umumiyy munosabatlarning qaysinisi qaysi rangdaligi, qaysinisi sovuq, qaysinisi issiq, qaysinisi yorug', qaysinisi to'q, qaysinisi ochiq, qaysinisi yumshoqligi hisobga olinadi.

Yoritilgan va soya joylar munosabatini iloji boricha birdaniga olish kerak. Misol uchun, yuz va qo'lning soya joylarini kiyimning soyasiga, yorug' joydagi ranglar munosabatini soya joylariga va foniga qarab olinadi. Kiyimning gullarini hamma joylarda aniq qilib ishlamaslik kerak. Faqat yorug' joylarini, bo'rtib chiqqan joylarini ishlab, soyadagilarini umumlashtirib ishslash kerak. Figuruning ba'zi qismlari devor fonida to'q siluet bo'lib ko'rinishi, boshqa joyi esa teskari, fondan och bo'lib ko'rinishi mumkin. Naturadagi hamma detallarni maydalab ishlamaslik, uni tugatishga harakat qilmaslik kerak. Ishni ranglarni o'zaro solishtirish va matoning butun yuzasida olib borish va tugatish kerak (24, 25-rasmlar).

## **3-BOSQICH, V-SEMESTR**

### **1-mavzu. O'ta jimjimador boy ranglarga ega bo'lgan kuz gullari va mevali natyurmort**

Vazifani bajarishdan oldin postanovkani umumiyy rangdagi qurilishiga e'tibor berish kerak. Etyudda ranglarning o'zaro munosabatlari aniqlanadi.

<sup>1</sup> Kompanovka — chizilishi lozim bo'lgan naturani, manzarani va boshqalarni qog'ozga to'g'ri, chiroyli joylashtirish.

Postanovkaning eng yorug' bo'lagi olma bo'lib, eng to'q gullar turgan ko'za hisoblanadi. Bu predmetlarning bir-biriga bo'lgan rangdagi kuchini hisobga olib, ularni postanovkada bo'lgan joyi topiladi. Misol uchun, sariq gul bilan sariq olmaning rangi taqqoslanib, unda olma guldan yorug'roq va rangdor xuddi shunday boshqa gullar va mevalarning xarakteristikalari topiladi. Aniq olingen munosabatlarda ularning o'z joyi va tasvirning butun rangdagi gammasi topiladi. Podmalyovkaning boshlanishida maydalashtirmasdan, asosiy ranglarning munosabatini ochish, aniq olingen birinchi ranglar keyingi ish davomida yaxshi muhit tayyorlaydi. Yozish erkin, harakatchan va katta cho'tkada ishlashni talab qiladi. Rassomning ko'z oldida katta munosabatlar, naturaning umumiyligi holatini berishga harakat qilinadi. Shu bilan birga chizmaning aniq bo'lishini, shaklning tuzilishini, chegarasini va perspektiv holatini ko'rishni aniq bo'lishini kuzatib borish kerak. Bu vazifaning maqsadi naturani har tomonidan uning ko'p qirrali, boy ranglar va shakllarini ko'rishni o'rgatadi (30-rasm).

## **2-mavzu. Keksaroq yoshdagi yarim yalong'och kishining qo'llari bilan nisbatan harakati seziluvchi anatomik yarim gavdasi tasviri**

Postanovka qo'yilgandan keyin unga yorug'lik berish kerak. Iloji boricha yorug'lik yon tomonidan yoki to'g'ridan tushib tursin. Fon modelning badanidan ancha to'q bo'lsin va postanovkada oq predmet bo'lsin, masalan, oq sochiq.

Agar vaqt yetsa avval qisqa muddatli etyud qilib olish kerak. Bu vazifaning qiyinchiligi shundaki, kiyimdagisi odamni ishlaganimizda uning kiyimida bizlar ko'pdan ko'p kontrast ranglarni ko'ramiz. Yalong'och odamning badanida esa ranglar kontrastini ko'rmaymiz. Ular faqat ko'z, soch va lablarda bo'lishi mumkin. Badanning rangi bir-biriga bog'langan tuslar issiq va sovuq, soya yorug'liklardan iboratdir.

Postanovkaning kompozitsion yechimi topilgandan keyin rasmni qurish boshlanadi. Odam gavdasi murakkab tuzilgan bo'lgani uchun uni qurishda soddalashtirib (sxematik) chizib, ya'ni ko'plab yordamchi chiziq va tayanch nuqtalaridan foydalilaniladi. Chizib bo'lgandan keyin podmalyovkada ish boshlanadi. Soyalar aniq topilishi kerak. Katta formalar topib, ya'ni umumiyligidan maydaga o'tish va aksincha, maydadan umumiylikka qaytish qoidasiga rioya qilish kerak. Bu degani, yarim yalong'och kishining faqat kompozitsiyasi yoki qurilishi emas, balki uning soya-yorug'lik, umumiyligi holatini rangda tahlil qilib tekshirib berish bilan boshning, qo'lning, badanning haqiqiy shaklini to'g'ri tasvirlash kerak. Shundan so'ng boshning mayda bo'laklari qulqoq, ko'z, burun, labni ishlashga kirishiladi. Bunga

naturaning shaxsiy psixologik xarakterini ham bera olish kiradi. Ishni ranglarni o'zaro solishtirish (taqqoslash) bilan boshni badan va qo'lga bo'lgan rangdagi munosabati hamda badanning fonga fazoda turgan holati orqali tugallanadi (27-rasm).

### **3-mavzu. O'rta yoshdagi erkak yoki ayolning to'liq gavdasi. Kasbidan dalolat beruvchi kiyim va atrofida kasbiga oid buyumlardan kompozitsiya**

Bu vazifada duradgor va uning atrofida duradgorlik asbob- uskunalaridan qo'yiladi. Agar ayol bo'lsa, unda uning tikuv paytidagi holati va uning atrofidagi tikish ishlaridan natyurmort — iplar, qaychi, matolar ifodalanadi.

Postanovkani qo'yish paytida yorug'likni tushishiga e'tibor berish kerak, chunki yorug'lik odam qomatini yaxshi yoritib turishi hamda uning xarakterini ochib berishiga yordam berish kerak. Misol uchun, duradgorning ishlashiga hamma asboblarni, taxtalarni va shunga o'xhash narsalarni yaxshi ko'rinishi uchun yorug'lik yetarli bo'lishi kerak. Postanovka tayyor bo'lgandan keyin kichik hajmda katta tomoni 25 sm dan ortiq bo'lmagan qisqa muddatli etyud qilib olish kerak. Bu etyudda ishning kompozitsion yechimi, asosiy ranglarning munosabati, ranglar bilan soya-yorug'larni topish mumkin. Postanovkaga odam qomatidan tashqari natyurmort qo'shiladi, endi odam qomatini orqasida devor emas, balki interyerning bir qismi bo'ladi. Bu esa vazifani ancha murakkablashtiradi. Shu bilan vazifa ancha murakkablashadi, birdaniga odam qomati, natyurmort va interyerning munosabatlarni olishga to'g'ri keladi. Mayda detallarga to'xtamasdan asosiy katta munosabatlarni olishga to'g'ri keladi. Mayda detallarga to'xtamasdan asosiy katta munosabatlarni olish kerak. Butun mato yuzasida doimo aylanib ishslash kerak, odam qomatidan natyurmortga va natyurmordan uni o'rab turgan interyerga, keyin yana odam qomatiga qaytiladi.

Etyuddan katta holatga o'tishda yana bir marotaba kompozitsion yechimni ko'rib chiqib, kerak bo'lsa o'zgartirish kiritish kerak, shoshmasdan chizmani qurish kerak, chunki odam qomati, natyurmordagi shakllar va interyerdagi jihozlar proporsiyasi fazoviy joylashishi to'g'ri bo'lishi uchun chizmani tekshirib, kerak bo'lsa tuzatib, keyin rang bilan ish boshlanadi. Birdaniga katta ranglar munosabatini olish uchun bo'yoqlarni suyuq qilib katta cho'tkada ishslash kerak. Doimo odam qomatidan natyurmortga va uning atrofidagi interyer jihozlariga, yana odam qomatiga qaytiladi. Butun etyud bir xil va ranglar munosabati bir-biriga munosib bo'lishiga e'tibor beriladi. Odam qomati va hamma predmetlar fazoviy joylashishida o'z joyini topishini e'tibordan soqit qilmasdan ish olib boriladi.

Ranglar, soya, yorug‘lar va katta munosabat olingandan so‘ng mayda detallar umumiylidkan chiqib ketmasdan jonlantirib boyitib turish kerak. Odam qomatining yuz va qo‘llarini, ozgina bo‘lsa-da, figuraning formalari ko‘rsatib turgan, kiyimidagi buramalarni, natyurmortdagи predmetlarni aniq qilib chizib atrof-muhitni, avvalo birinchi plandagi narsalarni ifodalash kerak. Bundan tashqari devorning rangini, pol, xonaning shiftini va yorug‘likning xarakterini hamda postanovkaning butun ranglar qurilishini va rangning ba’zi bo‘laklarga ta’sir qilishini ko‘rsatish lozim (28-rasm).

#### **4-mavzu. O‘siprin yigit yoki qizning interyeriga nisbatan kichik o‘lchamdagи to‘liq gavdasini xomaki tasviri (etyud)**

O‘tgan vazifalardagi postanovkalarda odam qomatini harakatda va uning atrofidagi buyumlarni ishslash bilan ancha mahoratga ega bo‘lindi. Unda asosiy maqsad odamning natyurmort bilan bo‘lgan aloqasiga qaratilgan bo‘lsa, bu vazifa esa shu postanovkani endi interyer bilan bog‘lash bo‘ladi. Asosiy maqsad etyudda odam qomatini interyer bilan bog‘lanishiga qaratiladi.

Postanovkani odam qomatining atrofida qo‘yiladigan predmetlarni, uning individual obrazini ochib beradigan narsalar bilan to‘ldirish kerak va predmetlarning fazoviy joylashuvi odam qomatini ishslashda xalaqt bermasin. Yorug‘lik odam qomatiga shunday tushsinki, u kompozitsion markazda shu muhitga taalluqli bo‘lsin. Uning atrofida haddan tashqari har xil predmetlar ko‘payib ketmasligi va kiyimi ochiq rangda bo‘lmasligi lozim. Bular o‘z navbatida ishlashni qiyinlashtiradi, uni umumiy, yaxlit ko‘rishga xalaqt beradi.

Naturshchikning ochiq rangdagi kiyimi yo‘qligi sababli uning atrofidagi yaqin joylashgan natyurmortdagи yorqin ranglari figuradagi ba’zi rangli reflekslarni ko‘rishga xalaqt beradi.

Odam qomatidagi va uning atrofidagi ranglar bir-biriga bog‘liqligi, zo‘rg‘a ko‘rinadigan reflekslar, juda nozik ranglar bilan bog‘langan.

Shu bilan birga devor, pol rangi, katta predmetlar figuraning ranglarini ko‘rishga ta’sir etadi.

Asosiy e’tibor figurani o‘rab turgan predmetlarning ranglari uning har bir bo‘lagiga ta’siriga qaratiladi. Qomatning tepe qismi (yuz, soch, ko‘ylagi)ga ko‘proq devor rangi ta’sir qiladi. Qomatning pastki qismiga esa pol rangining ta’sirini ko‘rish mumkin. Qomatning har bir bo‘lagi har xil yorug‘lik ta’sirida bo‘ladi.

Shuning uchun qomatning ochiq joylari, naturshchikning kiyimi bir xil rangda bo‘lsa ham tepe va past qismlari bir xilda bo‘lmaydi.

Naturaning har bir bo‘lagini umumiy nazoratda ushlab urish lozim. Doimo bu bo‘laklarni bir-biriga taqqoslab, uning ranglarini e’tibordan chetga chiqazmaslik kerak.

Shuni esda tutish kerakki, etyudning butunligini saqlab qolish uchun qomatni interyer bilan bog'liqligining individualligini e'tibordan chetda goldirmaslik kerak (29-rasm).

### **3-BOSQICH, VI-SEMESTR**

#### **1-mavzu. Eski qumg'onlar, ish buyumlar, bir yoki ikki xil so'zanalar yig'indisidan iborat kompozitsiya natyurmorti**

Bu postanovka o'tgan vazifalarning yig'indisi bo'ladi. Natyurmortning kompozitsion yechimi, rasm qurish, rang berish kabi bosqichlari chuqur o'rganilganligi hisobga olinib postanovkada ishlatiladi. Natyurmort predmetlari to'q va har xil rangda, o'ziga xos xarakterli formalarga egadir. Qumg'onlar va boshqa buyumlarni shunday joylashtirish kerakki, ularning formalari aniq ko'rinsin va shu bilan birga umumiylar guruhsida bo'lsin. Siluetlar ko'rinishi yaxshi va bir ritm (marom)da bo'lsin. Buning uchun fon rangi och rangda bo'lishi kerak, unda predmetlarning siluetlari yaxshi ko'rinati.

Ritm ma'nosi shakllarning bir maromda qaytarilishidir. Ritm ko'pincha uchburchak, kvadrat va to'rtturburchak naqshlar kompozitsiyasida ko'p ishlatiladi. Kompozitsiyada ritm (marom)ning har xil turlari chiziqli, ranglar va tonlarda ishlatiladi. Bir maromda qurilgan siluetlarni yashilroq rangdagi eski qumg'on, to'q jigarrang mis ko'za va shunga o'xshagan rangi bir-biriga yaqin buyumlarda ishlatiladi. Predmetlarning o'ziga xos formalari ularning ranglarini soya va yorug'likda topishda ko'rinati. Bularda ochiq va yaxshi ko'rindigan reflekslar yo'q. To'q yuzalardan yorug'lik nurlar sal-pal qaytariladi. Soya yorug'ni qurishda yorug'likning o'ziga xosligi va uning umumiylar yorug'likdagi holati hisobga olinadi. Postanovkaga tushib turgan sovuq nur unga umuman sovuq holatni beradi, faqatgina soya joylarda issiq tonlar bo'ladi. Vazifadagi asosiy maqsad uni yaxlitligini ta'minlash uchun postanovkani muayyan ranglar gammasida saqlash kerak (31-rasm).

#### **2-mavzu. Yalong'och ayolning to'liq gavdasi**

**(matoning katta o'Ichami tomoni 110 yoki**

**130 sm atrofida)**

Postanovkani shunday joylashtirish kerakki, modelning harakatida erkinlik bo'lsin. Unga beriladigan yorug'lik nurlari ta'sirida naturaning qomati fazoviy joylashtirilib, uning hajmi, shakli aniq ko'rini turadi.

Vazifaning qiyinligi shundaki, odam ba'zan rangning nozik farqlari, xilma-xilligi, umumiylar xarakteri chegaralangan ranglar diapazonida bo'ladi. Lekin ranglar yaqinligida yalang'och ayol qomatida ranglarning

nozik fonida issiq va sovuq, yorug<sup>1</sup> va to‘q ranglar jilosini ko‘rishimiz mumkin.

Odam terisining rangi odam badanining har qismida har xil bo‘ladi. Yuzning rangi qo‘l rangidan, ko‘krak rangi son rangidan farq qiladi. Badanning kiyimdan ochiq joylari kiyim yopib turgan joylardan ancha to‘q bo‘ladi. Atrof-muhit ta’sirida odam badanida ko‘pdan ko‘p reflekslar bo‘ladi. Shuning uchun naturani atrof-muhit bilan birgalikda ishlash kerak bo‘ladi. Yalang‘och odam qomati ranglarning ko‘pgina nozik farqlari ishni podmalyovkada boshlaganda topib beriladi. Avvalambor katta formalar va katta soyalar ishlab chiqiladi, so‘ng ko‘z, burun, lab, qulqoq, qo‘l va oyoq panjalari ishlab chiqiladi. Bular ishlab bo‘lgandan keyin yana yaxlitlikka o‘tiladi. Qachonki mayda bo‘laklar aniqlanib ishlangach, yana ishning yaxlitligiga qaraladi. Rangtasvirning bu bilan vazifasi tugamaydi. U naturaning atrofidagi predmetlar va foni ishlabgina qolmay, figuraning atrof-muhitdagi nur va fazoviy bog‘lanishida turgan holatini ko‘rsata bilishi kerak.

Postanovka qo‘yilgandan keyin matoning formati aniqlanadi va unga butun yalong‘och qomat kompanoyka qilinadi. Keyin qalam va ko‘mir tayoqcha bilan katta formalarda aniq qilib natura chiziladi. Iloji boricha figuraning proporsiyalarini aniq olish kerak bo‘ladi.

Rangda boshlashdan oldin postanovkaning umumiy rangdagi holatini aniqlash kerak. Butun natura rangda bir-biriga yaqin yoki kontrast, issiq yoki sovuq bo‘lishi mumkin.

Ishni naturadagi aniq rangda bo‘lgan qismida boshlash kerak. Unda uning to‘q joylari olinadi. Eng avvalo ish boshlashda aniq qilib ikki-uch ranglar munosabati olinadi, keyin bularga qarab postanovkaning qolgan joylarini ishlash oson bo‘ladi. Bular albatta naturaning qomati, fon va u yotgan stol yuzasi bo‘ladi. Albatta bu katta munosabatlarning qaysinisi qaysi rangdaligini, sovuq va issiqligini aniqlash kerak bo‘ladi. Yorug<sup>1</sup> va soya joylarning munosabatini birdaniga olishga harakat qilish kerak.

Misol uchun yuz, ko‘krak qismi va oyoqlardagi soya ranglariga, uning yorug<sup>1</sup> joylari ranglari va fonga bo‘lgan munosabatlarini olish kerak. Katta ranglar munosabatlari olinib, shu bilan birga ishning umumiy koloriti<sup>1</sup> boyitib boriladi. Ranglarning fazoviy joylashishiga katta e’tibor berish kerak. Naturaning qaysi bo‘laklariga qo‘yilgan rang uning fazoviy joylashishini belgilaydi. Agar qo‘lning soyadagi umumiy rangini topsak, lekin qo‘l juda ham oldinga chiqib ketsa yoki ichkariga kirib ketsa, demak rang boshqa ranglar munosabatida aniq topilmagan. Qo‘yilgan rangni boshqa rang bilan taqqoslab, doimo ish davomida tekshirib borish kerak. Ranglar munosabatida har bir detalning fazoviy joylashishi aniqlanadi va

<sup>1</sup> Kolorit — badiiy asarlardagi yetakchi rang.

ularning shakllari aniqlanib beriladi. Detallarning shakllari umumlashtirib olinadi. Qo‘lni ishlaganda undagi hamma barmoqlarni, tirnoqlarni ishlashning hojati yo‘q, qo‘lning umumiyl shakli olinsa bas, faqat uning soya va yorug‘ joylari aniqlanadi. Qulogning teshiklari, ko‘zning mijjalari, burunning teshiklari va shunga o‘xshaganlarni ishlashning hojati yo‘q. Bular bilan chalg‘imasdan asosiy vazifa asosiy yorug‘ ranglar munosabati yordamida figurani «katta» shakllarini topishdir. Asli shu ishda yuz, qo‘l, ba’zan oyoq ranglari va shakllari aniq bo‘lishi kerak.

## UYGA VAZIFA VA SAVOLLAR

### 1-bosqich uchun

Talabalar amaliy mashqlarini uyda bajarishlari uchun ijodiy natyurmortlar ishlashda aniq mavzular beriladi. Beriladigan mavzular «Natyurmortlar interyerda», «Natyurmort plenerda», «Mening kasbim». Bu mavzularni tanlash talabalarning ijodiy fantaziyalarini kompozitsiyalarda ochib berishlariga yordam beradi. Ijodiy natyurmortlarni ishlashning talablari quyidagicha bo‘ladi. Mavzuni topish va uni to‘liq ochib berish. Naturadagi materiallarni o‘rganib chiqish. Shular asosida eskizlarni ishlab chiqish, ularni oq-qora variantda ishlash. Eskizni matoda originalligini ishlash. Metodik jihatda eskiz qoramalmalarini bosqichma-bosqich ishlab, mavzuni ochib borishdir. Eskiz qoramalmalarini har xil formatlarda, har xil variantlarda axtarib, o‘sha predmetlarni tanlab olib ishlansa, unda kompozitsiya mavzusi aniq ochiladi.

### II—III bosqich talabalariga beriladigan vazifalar.

#### Moy bo‘yoqda

**1-vazifa.** Qisqa muddatli keksa odamning portreti 4—5 ta etyud, razmer katta tomoni 35 sm.

**2-vazifa.** Odamning yarim qomati har xil yorug‘likda. 2 ta etyud, razmer katta tomoni 30—35 sm.

**3-vazifa.** Har xil odamlardan 2 ta etyud, razmer katta tomoni 30—35 sm.

**4-vazifa.** Yarim qomatdan odam portreti natyurmort bilan. Etyud, razmer katta tomoni 40 sm.

**5-vazifa.** Odam qomati interyer bo‘lagi bilan. Etyud, razmer katta tomoni 40—45 sm.

**6-vazifa.** Odam qomati ochiq havoda. Etyud, razmer katta tomoni 45 sm.

**7-vazifa.** Yalong‘och odam qomati. Etyud, razmer katta tomoni 40—45 sm.

## SINOV SAVOLLARI

1. Tasviriy san'at turlari va janrlari.
2. Suv bo'yоq, guash va tempera, bo'yоqlar xususiyatini aytib bering.
3. Greyzal nima?
4. Moy bo'yоq xususiyatlari.
5. Gruntlar xillari.
6. Suyuq qorishmalar turlari.
7. Kompozitsiya nima?
8. Kompozitsiya markazi qanday aniqlanadi?
9. Issiq va sovuq ranglar qanday ranglar?
10. Kontrast ranglar nima?
11. Refleks nima?
12. Ritm nima?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ю. Г. Аксенов, Р. М. Закин., Ф. М. Кригер, Е. М. Зонненшталь, Ф. М. Тарасевич. «Рисунок и живопись», I—II том. М.; «Искусство», 1989.
2. А. С. Пучков, А. В. Треселев. «Методика работ над натюрмортом». М.; «Просвещение», 1982.
3. «Очерки по истории методов препорования рисунка» (под. ред. Н. Н. Ростовцев). М.; «Изобразительное искусство» 1983.
4. «Рисунок, живопись, композиция». (Авт. сост. Н. Н. Ростовцев, С. Е. Игнатьев, Е. В. Шорохов). М.; «Просвещение», 1989.
5. П. К. Сузалев. «Основы понимания живописи». М.; «Просвещение», 1989.
6. А. Унковский. «Живопись. Вопросы колорита». М.; «Просвещение», 1986.
7. Н. Н. Растовцев. «История методов обучения рисования». М.; «Просвещение», 1981.
8. N. Oydinov. «Rassom — o'qituvchilar tayyorlash muammolari». Т.; «O'qituvchi — Ziyo noshir», 1997.
9. T. Qo'ziyev, A. Egamov, T. Qanoatov, A. Nurgobilov. «Rangtasvir». Т.; «San'at» jurnali nashriyoti, 2003.
10. N. R. Qayumov, S. R. Boxodirova, A. A. Qayumov. «Rang, ruhiyat va salomatlik». Т.; «ASPEKSPRSES MEDIA», 2006.
11. A. Egamov. «Kompozitsiya asoslari». «San'at» jurnali nashriyoti, 2005.

## ITAXYOR RAJTONUHAQA MUNDARIJA

Kirish .....	3
Rangtasvirning maqsad va vazifalari .....	4
Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalari .....	5
Rangtasvirda ishlash usullari tarixidan .....	10
Ranglarning xususiyatlari .....	21
Rangtasvirda qo'llaniladigan asbob-uskunalar .....	24
Rangtasvir mashg'ulotlari .....	25
<b>1-BOSQICH, I-SEMESTR .....</b>	<b>25</b>
1-mavzu. Suv bo'yq, guash va tempera bo'yoqlari tarixi xususiyatlari haqida suhbat, amaliy mashqlar .....	25
2-mavzu. Sodda ko'rinishdan iborat bitta uy-ro'zg'or va gipsli ikkita geometrik shakllar va matodan tashkil topgan natyurmort (grizayl) .....	29
3-mavzu. Qotirilgan yovvoyi qushlar yoki parrandalar ishtirokida savatli bir nechta tuxum va uchta rangli matolar ishtirokida natyurmort .....	31
4-mavzu. Tasviri murakkab shakldagi qumg'on yoki xum, patir, choynak-piyolalar va issiqsovutq rangli matolar, so'zana ishtirokidagi milliy natyurmort .....	33
<b>1-BOSQICH, II-SEMESTR .....</b>	<b>25</b>
1-mavzu. Moy bo'yoqning tarixiy xususiyatlari va texnologik jihatlari hamda suyuq qorishmalar (razbavitel) yordamida ulardan foydalanish. Tortilgan matoni yog'och yelimi, jelatin, tuxum sarig'i yoki asalning tegishli foizlaridan kelib chiqib, ashyolash va oq rangli tempera bilan mato yuzasini bo'yash .....	34
2-mavzu. Kumush yoki bronza rangli samovar yoki choynak, piyola, non va ikki xil matolar yig'indisidan iborat oq-qora (grizayl) natyurmort .....	37
3-mavzu. Ko'za, so'zana, anor, olma yaxlit mato fonidagi milliy natyurmort .....	39
4-mavzu. Antik davri alloma yoki qahramonlardan birining gipsli portreti, uni yonida buyumlar to'Idiruvchi ikki xil mavzuli buyumlar va matolar ishtirokida natyurmort .....	39
<b>2-BOSQICH, III-SEMESTR .....</b>	<b>40</b>
1-mavzu. Keksa odamning portreti, yelka va ko'krak qismi yalangbosh holda kiyimi bilan .....	40
2-mavzu. Kuz mevalari, tarvuz yonida sochilib yotgan uzum, olma, behi, nok va anorli hamda serjilo bo'lgan so'zana fonidan tashkil etilgan natyurmort .....	41
3-mavzu. O'rta yoshli odamning boshini nisbatan bir tomonga qaratgan holda qo'llari bilan yarim figurasi (qomati) .....	43

<b>2-BOSQICH, IV-SEMESTR</b>	43
<b>1-mavzu.</b> Keksa yoshli ayolning ro'molli portreti, yelka va ko'krak qism tasviri .....	43
<b>2-mavzu.</b> Nisbatan kichik hajmdagi matoda interyerdagi tik turgan qariyaning to'liq gavdasini xomaki tasvirini ishlash .....	44
<b>3-mavzu.</b> Naqshinkor, milliy kiyimdag'i yosh ayolning qo'llari bilan yarim gavdasi.....	45
<b>3-BOSQICH, V-SEMESTR</b>	45
<b>1-mavzu.</b> O'ta jimjimador boy ranglarga ega bo'lgan kuz gullari va mevali natyurmort .....	45
<b>2-mavzu.</b> Keksaroq yoshdagi yarim yalang'och kishining qo'llari bilan nisbatan harakati seziluvchi anatomik yarim gavdasi tasviri .....	46
<b>3-mavzu.</b> O'rta yoshdag'i erkak yoki ayolning to'liq gavdasi. Kasbidan dalolat beruvchi kiyimi va atrofida kasbiga oid buyumlardan kompozitsiya .....	47
<b>4-mavzu.</b> O'spirin yigit yoki qizning interyerda nisbatan kichik o'lchamdag'i to'liq gavdasini xomaki tasviri (etyud) .....	48
<b>3-BOSQICH, VI-SEMESTR</b>	49
<b>1-mavzu.</b> Eski qumg'onlar, mis buyumlar, bir yoki ikki xil so'zanalar yig'indisidan iborat kompozitsiya natyurmorti .....	49
<b>2-mavzu.</b> Yalang'och ayolning to'liq gavdasi (matoning katta o'lchami tomoni 110 yoki 130 sm atrofida) .....	49
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	53

## ИЛГАРДОМЛАР

Онлайн-курс аудиторные занятия по анатомии

для студентов медицинских вузов «САНАР»

и медицинских колледжей

Преподаватели медицинских вузов

Семинар №1	Семинар №2
анатомия костной ткани	анатомия хряща
анатомия сухожилий	анатомия суставов
анатомия мышц	анатомия мозга
анатомия мочевыводящих путей	анатомия слизистой оболочки

Онлайн-курс «Илгардомы» для студентов медицинских вузов и медицинских колледжей. Курс состоит из 10 занятий. Курс охватывает темы: анатомия костной ткани, анатомия сухожилий, анатомия суставов, анатомия слизистой оболочки, анатомия мозга, анатомия сухожилий, анатомия мышц, анатомия хряща, анатомия мочевыводящих путей, анатомия сухожилий.

Платный онлайн-курс «ИЛГАРДОМЛАР»  
для студентов медицинских вузов

ORIF MUINOV

## **RANGTASVIR**

## RANGTASVIR

*Kash-hunar kollejlari uchun o‘quv go‘llanma*

## «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.

100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.

Muharrir	<i>Sh. Bo'tayev</i>
Tex. muharrir	<i>A. Solioxov</i>
Badiiy muharrir	<i>J. Gurova</i>
Musahhih	<i>M. Qosimova</i>
Kompyuterda tavyvorlovchi	<i>K. Goldobina</i>

Published on 15.09.07.1 by www.nidli.org. Published on 09/15/2014.

Bosishga 15.09.07 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90$  /<sup>16</sup>. Tashrifatiga qarabda foydali bo'lgan shaxslardan.

«Tayms» garniturada offset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 5,0.

«ARNAPRINT» MChJ bosmaxonasida borsildi.  
100182, Toshkent. H. Boyqaro ko'chasi, 41.

